

YANGI O‘ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVINING ZAMONAVIY VA INSONPARVAR QIYOFASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida byurokrtiyani bartaraf etish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forumning tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.



Forumda O‘zbekiston Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari hukumatlari, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning yuqori martabali vakillari, davlat xizmati sohasidagi yetakchi ekspertlar va jamoatchilik faollari qatnashmoqda.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida anjumanni tashkil etishdagi ko‘magi uchun Birlashgan Arab Amirliklarining Hukumat ishlari bo‘yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviyga samimiy minnatdorlik bildirdi. Ushbu mamlakat

xalqi va rahbariyatini yaqinlashib kelayotgan ayyom — Birlashgan Arab Amirliklari tashkil etilgan kun munosabati bilan muborakbod etdi.

— Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishda “Xalq davlat idoralariga emas,

davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan insonparvar g‘oyaga amal qilyapmiz, — dedi Prezidentimiz.

Ta’kidlanganidek, mamlakatimizda aholi va biznes uchun byurokrtiya,

ovoragarchilik va boshqa ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini tubdan isloh qilish va raqamlashtirish, davlat organlari faoliyatini

maqbullashtirish, aholi bilan davlat idoralari o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Davomi 2-beta

INNOVATSION HAMKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

SUN’IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING MILLIY STRATEGIYASI HAYOTGA FAOL TATBIQ ETILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro kongress markazida sun’iy intellekt bo‘yicha xalqaro forumning tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-noyabr kuni Birlashgan Arab Amirliklari Hukumat ishlari bo‘yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad OI Nahayon va mamlakat Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad OI Maktumning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — BAA do‘stligi va strategik sherikligini yanada mustahkamlash, shuningdek, joriy yilning yanvar oyida BAAga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda BAA hukumati bilan 40 dan ortiq yo‘nalishlarda 300 dan ziyod tashabbuslar, jumladan, “Hukumat akseleratori”, “Bir million dasturchi” va “Yosh yetakchilar” kabi muhim dasturlar amalga oshirilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlik bo‘yicha qabul qilinayotgan yangi besh yillik dasturni keng ko‘lamda amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Byurokrtiyani kamaytirish, sun’iy intellekt sohasida 5 million nafar prompt-muhandisni o‘qitishda BAAning ilg‘or tajribasini joriy etish hamda “Yosh avlod” va “Kitob chellenji” loyihalarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha hamkorlik rejalariga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, bo‘ljak oliy darajadagi tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga kelishib olindi.

Uchrashuv yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va vazir Muhammad al-Gargaviy O‘zbekiston — BAA munosabatlari tarixiga bag‘ishlangan ko‘rgazma bilan tanishdi.

O‘ZA

Tadbirdan avval davlatimiz rahbari mamlakatimiz yoshlari tomonidan yaratilgan sun’iy intellekt loyihalari va startaplar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtidorli yoshlar bilan muloqotda davlatimiz rahbari axborot texnologiyalari sohasining strategik ahamiyati, uning mamlakat barqaror rivoji va raqobatbardoshligida hal qiluvchi o‘rin tutayotganini alohida ta’kidladi. Taqdim etilgan turli sohalarga oid innovatsion ishlanmalar O‘zbekistonda shakllanayotgan zamonaviy raqamli ekotizim hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning real samarasi ekanligi qayd etildi.

Shu bilan birga, Prezident startap va texnologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, ishlanmalarni milliy miqyosda amaliyotga tatbiq qilish hamda ularni xalqaro bozorga olib chiqish muhimligini ta’kidladi. Bu bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari forumning ochilishida nutq so‘zlar ekan, uning barcha ishtirokchilarini samimiy qutladi.

XXI asrda axborot texnologiyalari va raqamlashtirish har bir mamlakat taraqqiyotining asosiy mezonini sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt endilikda faqat ayrim sohalar uchun emas, balki iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, davlat boshqaruvi va kundalik yashash tarzimizga chuqur kirib kelayotgan fundamental omilga, hayotiy zaruratlarga aylanmoqda.

— Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida ulkan nom qozongan buyuk olimlar Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek algoritim, matematika, mantiq fanlari ravnaqiga munosib hissa qo‘shib, hozirgi sun’iy intellekt rivoji uchun asos solishda qatnashgan, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi, — dedi Prezidentimiz.

Ana shu bebaho merosning davomchilari sifatida eng ilg‘or, zamonaviy texnologiyalarga ochiq bo‘lishimiz, uni taraqqiyotimizning kuchli tayanchiga aylantirishimiz zarurligi alohida ta’kidlandi.

Sun’iy intellekt transformatsiyasini amalga oshirish uchun ilk qadam sifatida

dunyodagi yetakchi davlatlarning eng ilg‘or tajribasi asosida Milliy strategiya qabul qilinib, hayotga faol tatbiq etila boshlandi.

Buning natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotida raqamli iqtisodiyot ulushi ikki karra oshdi. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yo‘nalishida qariyb 2 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jalb etildi.

Mamlakatimizda AT xizmatlarining eksporti hajmi o‘tgan yillarga nisbatan 4,5 karra o‘shib, 1 milliard dollarga yaqinlashgani ham ushbu sohadagi islohotlarning natijadorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, kuni kecha ilk bor ingliz huquqiga asoslangan maxsus rejimda faoliyat yuritadigan Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi tashkil etildi.

AT sohasida ta’lim berayotgan oliy ta’lim muassasalari qariyb 3 baravarga oshib, 145 ta, talabalar soni esa 80 ming nafarga yetdi.

Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda 2019-yilda boshlangan tashabbus — “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ikki milliondan ortiq yoshlarimiz bilim va ko‘nikmalarini oshirdi. “El-yurt

umidi” jamg‘armasi orqali bu borada 100 ga yaqin yoshlarimiz dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olmoqda.

— Biz ishonamiz: ular ertaga yurtimizga qaytib, sun’iy intellektning eng so‘nggi yutuqlarini ta’limga, iqtisodiyotga, davlat boshqaruviga joriy qilishda yetakchi kuchga aylanadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt ta’lim tizimiga joriy etish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash, maktab va universitetlarda soha bo‘yicha savodxonlikni oshirish dasturlari amalga oshirilmoqda.

Sun’iy intellekt texnologiyalari tarmoqlar samaradorligi, ayniqsa, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga yangi kuch va mazmun bag‘ishlamoqda.

Xususan, raqamli diagnostika tizimlari joriy etilishi natijasida 50 mingdan ortiq bemorga sun’iy intellekt yordamida aniq tashxis qo‘yildi. Bu shifokorlarning ish yuklamasini sezilarli darajada kamaytirib, tibbiy xizmat ko‘rsatish vaqtini 5-7 barobar qisqartirdi.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON POZITSIYASI

mintaqada yangi siyosiy tafakkur davrini boshlab berdi

“Yangi O‘zbekiston yetakchisining kuchli siyosiy irodasi”, “Markaziy Osiyo ruhi uyg‘ondi. Mintaqada yangicha siyosiy tafakkur shakllandi”, “Rivojlangan davlatlar Markaziy Osiyo bilan hamkorlik qilish uchun musobaqalashmoqda”.

So‘nggi vaqtlarda media olamida bu iboralar tez-tez tilga olinayapti. Toshkentda bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi jarayonida esa “Yangi Markaziy Osiyo oltiligi” degan ibora xalqaro siyosiy atamalar qatoridan o‘rin oldi. Ana shunday e’tiroflar, mintaqamizdagi ijobiy o‘zgarishlardan Markaziy osiyoliklar birdek quvondi. Buni axborot makoni shu mavzudagi ijobiy fikrlar maydoniga aylanganida ham ko‘rish mumkin. Chunki mana shunday birdamlik,

qo‘shni davlatlarning hamfikr, yagona mintaq bo‘lib ish ko‘rishi, o‘z kelajagini belgilashi xalqlarimizning asriy orzusi edi.

Hozirgi tarixiy jarayon oldimizga bir nechta muhim talabni qo‘yadi. Avvalo, bugungi darajaga yetib kelishimizning asosiy sabablarini teran tahlil etishimiz zarur. Qolaversa, kechagi kunimizdan saboq olib, mintaq xalqlari yanada jipslashib kelajak sari olg‘a borishi kerak.

Davomi 3-beta

Kun mavzusi

Ekologik Monitoring



SANOAT KORXONALARIGA QAT’IY MUHLAT BELGILANDI

4

KONSTITUTSIYA – INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI!



Jahonda tug‘ilish kamayib, aholisi tobora qarib borayotgan davlatlar borligini bilsak yoki yoshlar kelajak uchun qanchalik muhim kuchligi xususidagi ma’lumotlarga ko‘zimiz tushsa, bolajon xalq ekanimizdan g‘ururlanib qo‘yamiz.

YOSHLAR – UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORI

To‘g‘ri-da, to‘kis oilaga nima yetsin! O‘zbekchilik — uyimiz har doim bolalar shovqiniga to‘lib turishga o‘rganib qolganmiz. Farzandlarimiz, nevaralarimiz yutuqlaridan ulardan ko‘ra yuz chandon quvonamiz. Kamolini ko‘rib faxrlanamiz. Boshqacha hayotni tasavvur etishimiz qiyinroq.

Nazarimizda, bugun biz ko‘p gapirayotganimiz — “inson qadri” tushunchasi ham ana shunday qadriyat va qarashlar asosida paydo bo‘lgan. Chunki insoniylik o‘zaro muloqotda yuzaga chiqadi. Mehr-oqibat hamjihatlikda, ahillikda shakllanadi.

Davomi 5-beta



SUN'IY INTELLEKT TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING MILLIY STRATEGIYASI HAYOTGA FAOL TATBIQ ETILADI

Boshlanishi 1-betda

Yana bir misol. Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan umummilliy "Salomatlik marafoni" doirasida 45-65 yosh orasidagi ayollar o'rtasida 4 mingga yaqin mammografiya tekshiruvi amalga oshirildi.

Dastlabki tekshiruv tasvirlarining 70 foizi yurtimiz mutaxassislari tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt platformasi orqali tahlil qilinib, ularning 98 foizi shifokorlar tomonidan tasdiqlandi. Tashxis qo'yish vaqt bir necha kundan ikki soatgacha qisqardi.

AT sohasidagi innovatsion ekotizim ham sezilarli o'sdi. Startaplar soni so'nggi yillarda 10 baravar oshib, umumiy hisobda 300 million dollar investitsiya jalb qilindi.

Davlatimiz rahbari forumda ishtirok etayotgan xalqaro tashkilotlar va jahonning yetakchi kompaniyalarini yurtimizda sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikka chaqirdi.

Xorijiy ekspertlar keyingi besh yilda sun'iy intellekt texnologiyalari O'zbekiston iqtisodiyotida kamida 10 milliard dollarlik qo'shimcha qiymat yaratishini prognoz qilyapti.

Bunday yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun barcha zarur asoslar va imkoniyatlar mavjud.

2030-yilga qadar faqat AT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish, sohada yetishib chiqadigan millionlab yoshlar uchun yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish bo'yicha katta marralar olingani ta'kidlandi.

Yurtimizda sun'iy intellekt ekotizimini barcha sohalarida joriy etish maqsadida kelgusi yil AQSHning "Nvidia" kompaniyasi bilan katta super kompyuter klasteri ishga tushiriladi.

— Asosiy maqsadimiz — O'zbekistonni nafaqat zamonaviy texnologiyalar iste'molchisi, balki ulami yaratadigan,

eksport qiladigan va global miqyosda raqobatlasha oladigan davlatga aylantirishdir. Milliy mahsulotlarimizni xalqaro bozorga yo'naltirish borasida AQSHning Kremniy vodiysida Milliy transfer ofisini ochib, yoshlarimiz va startap asoschilarini yirik kompaniyalar, investor va akseleratorlar bilan to'g'ridan to'g'ri bog'lash imkoniyatini yaratamiz, — dedi Prezident.

Endilikda yoshlarimiz maktabdan tashqari ham sun'iy intellekt bilan ishlash ko'nikmalariga o'rgatiladi. Buning uchun yurtimizning barcha hududlaridagi "Kelajak maktablari"da SI maktab dasturi joriy qilinadi.

Mamlakatimizda maktablar o'rtasida har yili sun'iy intellekt yo'nalishida eng yaxshi startap g'oyalari bo'yicha tanlov o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Respublikadagi 14 ta hududning har birida g'oliblikni qo'lga kiritgan maktabda eng zamonaviy sun'iy intellekt laboratoriyasi tashkil etiladi va g'oyalarni tijoratlashtirish bo'yicha ilg'or kompaniyalar bilan hamkorlik o'rnatiladi.

Sohadagi istiqbolli yoshlarni aniqlash va ularni qo'shimcha rag'batlantirish maqsadida "Sun'iy intellekt bo'yicha Prezident tanlovi" tashkil etiladi.

Chekka tumanlardan tortib, respublika darajasigacha har yili 100 nafar eng iqtidorli yoshlar saralab olinadi. Ular AQSH, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropaning ilg'or texnologik kompaniyalariga stajirovkaga yuboriladi. Keyingi bosqichda oliygohlar uchun ham ushbu amaliyot joriy etiladi.

Yuqorida aytilgan maqsadlar uchun 100 million dollar ajratiladi hamda mazkur mablag' katta rejalarni ijrosini ta'minlashga yo'naltiriladi.

— Bugun biz Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda "Bir million dasturchi" loyihasining uzviy davomi sifatida "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasiga start beramiz. Bu oddiy dastur emas, balki

yoshlarimiz uchun yangi imkoniyatlar olamidir, — dedi davlatimiz rahbari.

Loyiha doirasida 2030-yilga qadar 4 million 750 ming maktab o'quvchilari va talabalar, 150 ming nafar o'qituvchilar hamda 100 ming nafar davlat xizmatchilarini o'qitish ko'zda tutilgan.

Bunda sun'iy intellekt maktab, kasb ta'limi va oliy ta'lim tizimlariga ham integratsiya qilinadi.

— Ishonamanki, "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi kelgusida iqtisodiyot drayveriga aylanib, mamlakatimizning jadal taraqqiyoti uchun shiddat bag'ishlaydi, — dedi Prezidentimiz.

Safllari tobora kengayib borayotgan iqtidorli va o'tyurak yoshlar Yangi O'zbekistonning oltin avlodi, chinakam g'ururi va iftixoridir. Kuni kecha yuksak intellektual salohiyatli yoshlarimizning yorqin vakili bo'lgan Javohir Sindorov Hindistonda shaxmat bo'yicha Jahon kubogida g'alaba qozonib, o'zbek yoshlarining nimalarga qodirligini butun dunyoga yana bir bor ko'rsatdi.

Kuni kecha davlatimiz rahbarining farmoniga binoan Javohir Sindorov "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan edi.

Forumda Prezidentimiz Javohir Sindorovga ushbu yuksak unvonni tantanali ravishda topshirdi.

Davlatimiz rahbari sun'iy intellektni keng targ'ib qilish, yurtimizga ilg'or mutaxassis va ekspertlarni jalb etish, iqtidorli yoshlarni sohaga yanada qiziqitirish, ularni rag'batlantirish maqsadida mamlakatimizda har yili noyabr oyini "Yoshlar uchun sun'iy intellekt oyligi" deb e'lon qilish, uning doirasida "Ipak yo'li sun'iy intellekt forumi"ni o'tkazib borishni taklif qildi.

Marosim yakunida O'zbekistonda "5 million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasiga start berildi.

O'ZA

YANGI O'ZBEKISTON DAVLAT BOSHQARUVINING ZAMONAVIY VA INSONPARVAR QIYOFASI

Boshlanishi 1-betda

So'nggi yillarda respublikamizda byurokratiyani qisqartirishga qaratilgan 9 ta farmon va qaror qabul qilindi. Davlat xizmatlari markazlari, Yagona portal platformasi, "Raqamli hukumat" kabi tizimlarning tashkil etilishi natijasida davlat xizmatlari xalqimiz uchun yanada qulay, tezkor va shaffof bo'lmoqda.

Xususan, 2017-yilda faqat 444 turdagi davlat xizmatlari ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 1 ming 40 taga yetdi. Bunda ko'rsatilgan xizmatlar soni qariyb 10 barobarga ko'payib, 55 milliondan oshdi. 90 dan ortiq xizmatlarni proaktiv va kompozit shaklda ko'rsatish yo'lga qo'yildi.

Masalan, tug'ilish bilan bog'liq xizmatlarning kompozit shaklda ko'rsatilishi har yili qariyb 1 million fuqaroga qulaylik yaratmoqda. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, yoshga doir pensiya tayinlanishi aholi murojaatlarisiz avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda.

Raqamlashtirish natijasida 30 turdagi xizmatlarni real vaqt rejimida olish imkoniyati yaratildi. Joriy yilning o'zida 8 millionga yaqin xizmatlar avtomatik ravishda ko'rsatildi. Hujjat almashinuvining elektron shaklga o'tkazilishi aholining yiliga 23 milliard so'm mablag'lari tejalisiga imkon bermoqda.

Shu bilan birga, biznes vakillariga ham yengillik va qulayliklar yaratish maqsadida 160 dan ziyod litsenziya va ruxsatnomalar bekor qilindi. 150 dan ortiq ruxsatnomalar bugungi kunda elektron shaklda berilmoqda, 140 turdagi hujjat va ma'lumotlarni talab qilish amaliyotiga chek qo'yildi.

Davlat xizmatlari eksterritorial tamoyil asosida ko'rsatila boshlandi. Shuningdek, "Biznesni 15 daqiqada boshlash" tamoyili amaliyotga joriy etilmoqda.

Davlatimiz rahbari bugun byurokratiyani kamaytirish bo'yicha alohida dastur tasdiqlanganini ma'lum qildi. Ushbu hujjat, eng avvalo, davlat va aholi, davlat va biznes hamda davlat tuzilmasining ichki

munosabatlarida byurokratiyani bartaraf etish, har tomonlama qulay davlat xizmatlari ekotizimini yaratishni nazarda tutadi.

— Pirovard maqsadimiz — 2030-yilga qadar O'zbekistonni ortiqcha byurokratiyadan xoli bo'lgan hududga aylantirishdan iboratdir, — dedi Prezident.

Dastur doirasida 2030-yilga qadar amalga oshiriladigan muhim vazifalar belgilab olindi. Jumladan, davlat xizmatlari soni 1,5 mingga, elektron xizmatlar ulushi 95 foizga yetkaziladi. Kelgusi yilning o'zida 250 ta xizmatlar elektron shaklga o'tkaziladi. Masalan, avttransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish, qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish kabi xizmatlardan elektron foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Yangi O'zbekistonda "Qog'ozsiz hukumat" tizimiga to'liq o'tilib, qog'oz aylanmasidan butunlay voz kechiladi. Mavjud 400 million hujjatlardan 25 millioni, shundan keyingi yilning o'zida 5 millioni raqamlashtiriladi.

Proaktiv va kompozit xizmatlarning soni 400 taga yetkaziladi. Kelgusi yilning o'zida 180 turdagi bunday xizmatlar joriy etiladi.

— Natijada fuqaro murojaat qilmasdan unga xizmat ko'rsatiladigan tizimga o'tamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Shuningdek, barcha davlat xizmatlari xatlovdan to'liq o'tkaziladi. Bunda bir-birini takrorlovchi, keraksiz, fuqarolarga yuk bo'layotgan talablar bekor qilinadi.

Litsenziya va ruxsatnomalar berish, kommunal tarmoqlarga ulanish, qurilish sohasida 300 dan ortiq davlat xizmatlari soddalashtiriladi. Masalan, 4 ta kommunal tarmoqqa yagona ariza asosida ulanish imkoniyati yaratiladi.

Xizmat ko'rsatish muddatlari keskin qisqartiriladi hamda ortiqcha hujjat va ma'lumotlar talab qilish bekor qilinadi.

100 dan ziyod davlat xizmatlarining ko'rsatish muddatlari 50 foizga qisqaradi. 110 dan ortiq ma'lumot va hujjatlar talab qilish to'liq bekor qilinadi.

Davlat xizmatlari portali, "Litsenziya" tizimi, "Yagona darcha" bo'xona platformasi va koll-markazlar to'liq sun'iy intellekt asosida ishlashga o'tadi.

Har yili vazirlik va idoralar faoliyati maxsus raqamli platforma orqali baholalanadi. Eng yaxshi natijaga erishgan idoralar va xodimlarni rag'batlantirish tartibi joriy etiladi.

Dastur natijadorligini doimiy ravishda monitoring qilish, vazirlik va idoralarning byurokratiyani qisqartirishga doir faoliyatini muvofiqlashtirish uchun alohida Dastur ofisi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Aholi va biznes vakillari uchun dasturga qo'shimchalar va yangi tashabbuslarni to'g'ridan to'g'ri kiritish, shu bilan birga, ular tomonidan vazirlik va idoralarning dastur doirasidagi faoliyatini baholash imkoniyati yaratiladi. Buning uchun 3 million dollar miqdorida mukofot jamg'armasi tashkil etiladi.

Ushbu jamg'arma hisobidan byurokratiyani bartaraf etish bo'yicha yangi tashabbus bilan chiqqan aholi, biznes vakillari hamda davlat xizmatchilari alohida pul mukofotlari bilan rag'batlantiriladi.

Shuningdek, qo'shimcha nominatsiyalar bo'yicha ham rag'batlantirish mexanizmlari joriy etiladi.

— Byurokratiyani bartaraf etish — davlatning xalqqa xizmat qilishga qaratilgan ustuvor vazifasidir. Biz birgalikda shunday tizimni yaratishimiz kerakki, fuqaro davlat idorasiga emas, davlatning o'zi har bir fuqaroning oldiga borishi va muammosini hal qilishi lozim. Bu — Yangi O'zbekiston davlat boshqaruvining zamonaviy va insonparvar qiyofasi bo'lishi zarur, — dedi Prezidentimiz.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, Byurokratiyani bartaraf etish dasturini ishga tushirdi.

Chilish marosimidan so'ng Prezidentimiz forum mavzusi, ilgari surilgan tashabbuslarning ahamiyati haqida jamoatchilik vakillari bilan suhbatlashdi. Yurtimizda "Inson qadri uchun" g'oyasi barcha islohotlarning asosini tashkil etayotgani, byurokratiyani bartaraf etish zamirida har bir qaror, har bir xizmat, har bir jarayon faqat inson manfaatiga xizmat qilishi zarurligi ta'kidlandi.

O'ZA



Munosabat

JIDDIY MUAMMOGA QARSHI USTUVOR CHORALAR

Bugungi kunda atmosfera havosi ifloslanishi eng o'tkir global muammolardan biriga aylandi. Poytaxtimiz havo ifloslanishi bo'yicha xalqaro reytinglarda tez-tez "yetakchi"ga aylanayotganiga doir ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar vaziyat o'zimizda ham naqadar jiddiy ekanidan dalolat beradi.

Yurtimizda o'tkazilayotgan gidro-meteorologik tadqiqotlar va kuzatuvlarga ko'ra, bu yil 1917-yildan keyingi eng qurg'oqchil yil bo'ldi. May oyida bir-ikki yog'inli kunlarni hisobga olmasa, kuzning so'nggi oyi nihoyasiga yetayotgan bo'lsa-da, hamon yomg'irdan darak yo'q. Bu holat atmosferaning tabiiy yuvilishini to'xtatdi. Shuning hisobiga va boshqa texnogen omillar ta'sirida havodan chang arimayapti. Havodagi chang esa inson salomatligi va ekologik muhit barqarorligiga jiddiy tahdid tug'diradi. Shu bois, bu noxush holat jamoatchilikni jiddiy tashvishga solmoqda.

Ilm-fan va texnologiyalar yuksak taraqqiy etgan bugungi davrda bunday ekologik muammolarga oqilona yechim topish va barqaror rivojlanishga erishish, avvalo, har bir insondan tabiatga mehr va oqibat bilan yondashishni talab etmoqda. Qolaversa, tabiiy muvozanatni ta'minlash o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni talab etadi Zero, tabiat bizning yagona yashash makonimiz, tiriklik va hayot davomiyligining muhim omilidir.

Jumladan, havo ifloslanishi bilan bog'liq vaziyatni oldindan prognoz qilish va

oqibatlarini yumshatish choralarini ko'rish orqali ekologik muvozanatni yaxshilashga erishish mumkin. Modomiki shunday ekan, yurtimizda bu borada qanday choralar belgilangan, bu yo'nalishda nima ishlar qilinmoqda?

Mamlakatimizni har tomonlama taraqqiy ettirishga qaratilgan strategik hujjatlarda bu masalaga alohida yondashilgan. Masalan, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavatt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish belgilangan.

Har yili 200 million tup daraxt ekish orqali yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, 2 mingga yaqin yashil bog' barpo etish, shaharlar bosh rejalari tuzishda ular hududining kamida 30 foizini yashil maydonlar tashkil etishini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar ham belgilanganki, ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Birgina Orolbo'yining 2 million gektardan ortiq cho'l hududlarida qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekilgani bu boradagi ishlar salmog'idan dalolat beradi.

So'nggi kunlarda mintaqamizda ro'y berayotgan ekologik noxush holatlarni bartaraf etish va tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish borasida mavjud vaziyatdan kelib chiqib jiddiy choralar ko'rilyapti. Prezidentimizning shu yil 24-noyabrda "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu borada yana bir muhim dasturlamal hujjat bo'ldi. Farmonga muvofiq, poytaxtda ekologik muammolarni bartaraf etish va havo sifatini yaxshilash maqsadida maxsus komissiya tuzildi.

Mavjud ekologik holatni e'tiborga olib, tezkor va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish, havo ifloslanishining oldini olish maqsadida ekologik nazoratni kuchaytirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha tegishli vazifalar belgilandi.

Jumladan, Toshkentda qurilish maydonlari nazorati kuchaytirildi. Katta qurilish maydonlarida monitoring stansiyalari majburiy bo'ladi. Poytaxtda mikroiklim barqarorligini ta'minlash bo'yicha yirik loyihalar boshlanadi. Uch oy muddatda shaharning to'rt oy nalisthi bo'ylab kamida



imkoniyati o'rganilmoqda. Chunki havodagi changni eng yaxshi ushlab qoladigan vosita — suv. Eski favvoralarni qayta ishga tushirish, yangi favvoralar qurish choralari ko'rilmogda.

Bundan tashqari, yashil hududlarni kengaytirish masalasiga alohida urg'u berilmoqda. Darast kesishga qarshi cheklovlar kuchaytirildi. Bu nafaqat changni kamaytirish, balki yozgi jaziramani yumshatish uchun ham muhimdir.

Mamlakatimizda atrof-muhit xavfsizligini ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish hamda atmosfera havosini ifloslantirishga qarshi kurashish maqsadida keng ko'lami ekologik nazorat tadbirlari o'tkazilyapti. Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekopolitsiya) tomonidan tashkil etilgan ekologik nazorat tadbirlari Toshkent viloyatining Qibray, Zangiot va Toshkent tumanlari, shuningdek, Toshkent shahrida tuzilgan 4 ta tezkor guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Reyd davomida 103 ta korxona va iqtisodiy faoliyat yurituvchi obyekt tekshirilib, ularning atmosfera havosini muhofaza qilishga oid qonunchilik talablariga qay darajada rioya qilayotgani o'rganildi. O'rganishlar natijasida 38 ta huquqbuzarlik aniqlandi, huquqbuzarlikka yo'l qo'yg'an shaxslarga nisbatan jami 34,8 million so'm miqdorida ma'muriy jarima qo'llanildi. Shuningdek, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatgan va qonun talablarini buzgan 18 ta obyekt faoliyati vaqtincha to'xtatildi. Reid tadbirlari davom etmoqda.

Shu taxlit davlatimiz tomonidan yurtimiz og'ir ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha barcha choralar ko'rilmogda. Bu ishlardan maqsad xalqimizning sog'lom atrof-muhitda yashashga bo'lgan huquqini ta'minlash, kelajak avlodlarga muassof, beg'ubor tabiat, ekologik sof muhitni meros qilib qoldirishdir. Bunday xayrli ishlar bardavom bo'lishi esa har birimizdan faollik va harakat, tabiatga oqilona yondashuvni talab etadi.

Faollik ham aslida katta yumush emas. Yashash joyimizni obod etish, bir tup bo'lsa-da nihol ekib, uni ulkan daraxtga aylantirish, chiqindini belgilangan joyga tashlash, suvni isrof qilmaslik, avtoulavimizdan chiqayotgan zararli gazlarni nazorat qilish, mahallamizdagi ekologik loyihalarga o'z hissamizni qo'shishga intilish kabi kichik amallarimiz tabiat sofligi uchun munosib hissamiz bo'ladi. Zero, tabiatni siylasak, u ham bizni siylaydi. Ana shunday xayrli ishlarga kamarbasta bo'lish har birimizga nasib etsin!

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Zarrabin

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

O‘ZBEKISTON POZITSIYASI

mintaqada yangi siyosiy tafakkur davrini boshlab berdi

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi doirasidagi rasmiy tadbirlarning ikki jihatiga e’tibor qaratsak. Birinchisi, yurtimizga tashrif buyurgan davlatlar rahbarlarini Prezidentimiz “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida kutib olib, kuzatib qo‘ydi. Ana shu kutib olish va kuzatish jarayonida o‘zaro yuksak samimiyat, do‘stona munosabatni ilg‘ab olish mushkul emasdi. Shu o‘rinda yana bir jihatga e’tibor qaratis kerak, nazarimda. Bu ham bo‘lsa, mehmonlarning yangi ish boshlagan “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida kutib olinishidir. O‘ylashimcha, ushbu aeroportda ilk bor qo‘shni, qardosh xalqlar yetakchilarining kutib olinishida ham katta ramziy ma‘no bor.

Aeroport qurilishi 2017-yilda boshlangan. Aynan o‘sha yili davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so‘zlab, mintaq davlatlari Prezidentlarining muntazam uchrashuvlarini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan edi. Ha, yangi O‘zbekistondagi xalq diplomatiyasi bilan bir vaqtda zamonaviy, barcha talabga javob beradigan aeroport qad rostlay boshladi. E’tiborlisi, u eng og‘ir samolyotlarni ham qabul qilish imkoniyatiga ega. Muhimi, u ICAO III-A toifasidagi ilg‘or radiotexnika va meteorologiya uskunalari bilan jihozlanadi. Bu noqulay ob-havo sharoitida ham uchish va qo‘nish imkonini beradi. Ushbu aeroport qurib bitkazilganida davlatimiz rahbari: **“Ko‘p yil tayyorgarlik qilib, mana shunday aeroport qurdiq. Bu ham davlatchilikning yana bir zamin”**, degani zamirida qanday ma‘no borligi endi anglashildi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zbekona diplomatiya, ko‘p vektorli siyosat ham muayyan ma’noda mana shu aeroportga o‘xshaydi. Dunyo siyosatidagi ob-havoning qanday o‘zgarishi oldindan taxmin etilib, har qanday og‘irlikdagi masala nafaqat milliy, balki umuminsoniy manfaatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqib hal qilinadi. Yana bir jihat shuki, aeroport Yangi Toshkent hududida joylashgan. Bu — Yangi Toshkent do‘stlarini har qanday ob-havo sharoitida xavfsiz, qulay kutib olish imkoniyatiga ega degani. Ayni shu jihati bilan aeroport muayyan ma’noda yangi O‘zbekiston pozitsiyasini ham ifodalaydi.

Yangi O‘zbekiston pozitsiyasi esa mehmonlar tashrif buyurgan yana bir manzil — Islom sivilizatsiyasi markazida o‘z aksini to‘la topdi deb o‘ylayman. Prezidentimiz

tashabbusi bilan bunyod etilgan markazda xalqimiz o‘tmishi, buguni va kelajagi qiyofasi aks ettirildi. Islom sivilizatsiyasi markazida beshta bo‘lim bor. Ular “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchii Renessans”, “Ikkinchi Renessans”, “O‘zbekiston XX asrda” va “Yangi O‘zbekiston — Yangi Renessans” dir. Agar mamlakatimiz tarixini ushbu bo‘limlar kesimida o‘rgansangiz, xalqimiz doim ilm-fanni birinchi o‘ringa qo‘yib, do‘stlikni tarannum etgani, yuksak tafakkuri bilan xalqaro nizolarga barham berganiga guvoh bo‘lasiz. Masalan, bundan 3000 yil avval ajdodlarimiz insoniyatga tortiq etgan “Avesto” ham ayni maqsadga xizmat qilgan. Aytishlaricha, o‘sha davrda turli g‘oyalar, aqidalar avj olgan. Shunda ajdodlarimiz “Avesto” timsolidagi umuminsoniy g‘oya, insonparvarlik falsafasi ila ezigulik jamiyatiga asos soldi. Shu bois, bu maskanni tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi, desak yanglishmaymiz. Zero, ushbu markaz orqali milliy o‘zligimizni anglash va anglatishni bosh maqsad qilib olganmiz.

Bugun ham dunyoda turli nizolar avj olgan. Ko‘z o‘ngimizda qarashlar, qadriyatlar o‘zgarib boryapti. Dunyo tarixidan ma’lumki, bunday vaziyat insoniyat uchun yangilik emas. Ammo ana shu murakkab vaziyatdan omon o‘ta olish doim yangicha qarashlarni, ruhiy, jismoniy quvvatni talab etadi. Ko‘hna uchun soholmalari yana bir haqiqatni ochadi: shunday murakkab vaziyatlarning aksariyatidan dunyo xalqlari Sharqda porlagan ma’rifat mayog‘i sabab omon chiqqan. Islom sivilizatsiyasi markazi asrimizning mana shunday ma’rifat mayog‘idir!

Shu o‘rinda kichik mulohaza. Keyingi yillarda O‘zbekistonning xalqaro tashqi siyosatdagi nufuzi yuksalib bormoqda. Buni president.uz saytiga qarashgiz bilan anglaysiz. Ushbu saytdagi tashriflarga doir xabarlarining aksariyati xalqaro munosabatlarga aloqador. Muhimi, bu safarlar geografik jihatdan ham keng qamrovlidir. Shuning o‘ziyoq mamlakatimiz g‘oyasosatda faol, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganini anglatadi. Ayni paytda Markaziy Osiyo butun dunyoga do‘stlik va hamkorlik mintaqasi sifatida tanilganini isbotlaydi.

Bu bizning asriy orzumiz edi. Jadid bobolarimizni esga oling. Ajdodlarimiz nimani orzu qilib, qanday maqsad uchun jonini fido etdi? Albatta, ular yurt ozodligi, xalq farovonligi yo‘lida molini ham, jonini ham tikdi. Maqsad xalqni keng tafakkurli, yuksak saviyali va bilimdon qilish edi. Bunday fazilatlariga ega xalqlar o‘z-o‘zidan ahil bo‘ladi. Ko‘proq eziguliklar haqida o‘ylaydi. Ammo jadidlarning orzusi amalga oshmadi. Bu Markaziy Osiyo xalqlari uchun ushalmas orzu, yetib bo‘lmas marra kabi ko‘rinardi. Bu iztirobning go‘zal lirik ifodasini O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid bunday bayon etgan edi:

**Qondosh bo‘lib qo‘shilmagan, qoni ayro,
To‘ralarin o‘z elidan noni ayro,
Asrlarkim yig‘lab o‘tdi ikki dayro,
Yarmi faryod, yarmi afg‘on yurt edi bu...**

Shukrki, dunyoda eng zo‘r armonni yo‘qqa chiqaradigan hayotiy haqiqatlar ham bor. Bu

mehr kuchi, do‘stlik quvvatidir! U barcha qoliplarni parchalash, odamlarni bir g‘oya atrofida birlashtirish qudratiga ega. Aynan shu qudrat tayfali **Prezidentimiz diplomatik protokolga qaramay, suratga tushishda markazdagi joyni mehmonlarga bo‘shatib berdi. Hurmatli mehmonlarga xalqimizga xos samimiyat izhor etildi. Ha, do‘stlik va birodarlik hatto diplomatik protokol qoidalaridan ustun keldi va haqli ravishda mintaqamizda tobora mustahkamlanib borayotgan o‘zaro hurmat va tenglik ramzi sifatida baholandi.** Hamkorlikning yangi bosqichi deb ko‘rildi. Albatta, mazkur yutuqlardan faxrlanamiz. Asriy orzuga erishayotganimiz qalbimizga quvonch olib kiradi. Shu bilan birga, istiqbolni belgilab beradigan mas’uliyatli vazifamizni ham chuqur his etamiz. Bu erishilgan marrani nafaqat saqlab qolish, balki ko‘zlangan darajadan ham yuksak cho‘qqiga olib chiqishdir.

Davlatimiz rahbari ana shu maqsadga erishish yo‘lida xizmat qiladigan qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Ilk tashabbus hamkorlik mexanizmlari va shartnomaviy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratildi. Ushbu uchrashuvlarni mintaqaviy mulqotning maslahat shaklidan **“Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirish taklif qilindi.**

Xalqimiz doim muhim masalalarni eng ishonchli do‘stlari, yaqinlari bilan bamaslahat hal etgan. Shu bois, “Maslahatli osh tarqamas” degan maqol bor. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi xuddi shu vazifani bajarib keldi. Shu orqali donishmand xalq dahosiga uyg‘un bo‘lgan ishlar to‘g‘ri tashkil etilsa, doim samara berishi yana bir bor o‘z tasdiq‘ini topdi. Ammo maslahatda ixtiyoriylik jihati ham bor. Shu ma’noda, ilk qadam Maslahat uchrashuvi bo‘lishi ayni muddao edi. O‘tgan davrda biz bir-birimizni angladik, qarashlar, fikrlar uyg‘unligi ko‘zga yaqqol tashlandi. Mintaqada o‘zibo‘larchilik kayfiyati yo‘qoldi. Hatto oddiy odamlar orasida ham mamlakatlararo, xalqlararo iliq, ijobiy fikrlar shakllandi. Masalan, qo‘shni davlatlar yetakchilari raqobatchi emas, do‘st va hamkor ekanimizni baralla ta’kidlamog‘da. Ko‘cha-ko‘yda, ijtimoiy tarmoqlarda oddiy odamlar, yurtimizga kelgan sayyohlar kuchli hayajon va mehr bilan fikr bildiriyapti. Demoqchimizki, Markaziy Osiyovliklar tom ma’noda yagona ovozgga aylandi. Ana shunday fursatda ularning maqsad va marralarini aniq belgilab ko‘rsatadigan, huquqiy asosga ega platforma zarur edi. Endi Maslahat uchrashuvi “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatida ana shu platforma vazifasini o‘taydi. Sodda qilib aytganda, yangi format jiddiy, chuqur va strategik birlashuv yo‘liga o‘tganimizni anglatadi. Shu jihati bilan Markaziy Osiyoning bugungi ruhiga to‘la javob beradi.

Bundan tashqari, xalq diplomatiyasi ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q. **Qadriyat va an‘analimizga tayangan holda, boy hayotiy tajriba va obro‘-e’tiborga ega jamoat arboblardan iborat Oqsoqollar kengashini**

tuzish taklifi ilgari surildi. Mana shu jihatning o‘zini nihoyatda chuqur va keng qamrovda tahlil etish mumkin. Chunki oqsoqollarga doim tayanch kuch sifatida qaralgan. Yurt egalari ham murakkab vaziyatlarda oqsoqollar maslahatiga quloq tutgan. Ularning fikrini umumlashtirib, hal qiluvchi qarorni ayrgan. Shu bois, oqsoqollik yuksak martaba bo‘lgan. Ayni paytda to‘g‘riso‘zlik, har qanday vaziyatda vijdonan ish ko‘rish, doim haq tomonda turish mas’uliyati yuklangan. Bularning barchasi Oqsoqollar kengashini tuzishning ahamiyati nechog‘liq yuksak ekanini anglatadi.

Davlatimiz rahbarining yana bir taklifi **savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish vazifasi bo‘ldi.** Ta’kidlanishicha, mintaq mamlakatlarining o‘zaro savdosi va umumiy tashqi savdo aylanmasi salohiyati o‘rta istiqbolda kamida 1,5-2 barobar oshirish imkonini beradi. Buning uchun ma’muriy to‘siqlarga barham berish, soliq va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni ko‘rish kerak. Shu kabi masalalarni to‘la hal etish uchun esa savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 2035-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish zarur.

Buyuk ipak yo‘li kabi karvon yo‘llari taraqqiyotning tayanch nuqtasi bo‘lgan. Ha, **Amir Temur bobomiz “Dunyo tijorat ahli ila oboddir!”** deganida naqadar haq edi. Bugun rivojlangan mamlakatlarning mintaqamiz bilan hamkorlikka intilishi zamirida ham ana shu hayotiy haqiqat bor. Markaziy Osiyo ishonchli va barqaror bozorga ega. Ayni paytda yetarlicha mahsulot yetkazib bera oladigan iqtisodiy imkoniyatga boy hudud. Shu bilan birga, mintaq endi yagona ovozgga, yaxlit kuchga aylanib bormoqda. Bu esa uning barqaror istiqbolidan darak beradi.

Ozərbayjonning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida to‘la huquqli a‘zo bo‘lgani savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, barqaror taraqqiyot mintaqamiz bo‘yicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi uqlarni ochadi. Mazkur hamkorlik Markaziy Osiyo va Janubiy Kavkaz o‘rtasida mustahkam ko‘priki bo‘lib xizmat qiladi. Mintaqamiz savdo-iqtisodiy yo‘llarining samaradorligini oshiradi.

Yana bir muhim tashabbus ekologiya, iqlim va suv resurslari taqchilligi masalalari yechimiga qaratildi. Dunyodagi ziddiyatlarga aksariyat hollarda tabiiy resurslarga egalik qilish istagi sabab bo‘lgan. Bu tendensiya bugun yanada dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining oshib borishi, sanoat rivoji tabiat muvozanatiga sezilarli darajada ta’sir qilyapti. Do‘ppi tor kelganda boshqalarning yoqasidan olish, o‘zganing haqiga ko‘z olaytirish odamga xos qusurlardan. Ammo sharqona odob, xalqimizga hos bag‘rikenglik bunday

kamchiliklarga qat’iy qarshi turadi. Yangi O‘zbekistonning “yashil” tashabbuslari zamirida ajdoddardan o‘tib kelayotgan ana shu ezigulik mujassam.

Bobo-momalarimiz doim suvni aziz, tuproqni tabarruk bilgan, e’zozlagan. Hazrat Navoiy yaktagina ilashib kelgan humolini uyasisga olib borib qo‘yish uchun yo‘lidan qaytgan. Qisqasi, xalqimiz tabiatga mana shunday chuqur ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan va bolalariga uqtirib kelgan. Mintaqa xalqlari haqida gap ketganida esa, bir daryodan suv ichganmiz degan iborani ishlatamiz. Mazkur iborada juda katta haqiqat, birdamlik falsafasi bor.

Bir daryodan suv ichish uchun uning



qirg‘og‘ida muqim qo‘shni bo‘lib yashash kerak. Yer, suv talashmay asrlar osha yashagan xalqlarning ahilligi haqida ortiqcha ta’rif shart emas, nazarimda. Uning ramziy ma’nosi ham bor. Ya’ni bu o‘zlik, ma’rifat daryosidir. Bu — qarashlarimiz, qadriyatlarimiz ham uyg‘un degani. Zamonaviy dunyo esa tom ma’noda bir daryodan suv ichish masalasini qo‘ymoqda.

Birinchidan, mintaq mamlakatlari tabiat boyliklaridan oqilona va teng huquqli asosda foydalanishi zarur. Mintaqada suv taqchilligi tobora oshib borayotir. Mazkur masala barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Davlatimiz rahbari mazkur oqibatlarini hisobga olib, **2026-2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi”** deb e’lon qilishni taklif etdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha qo‘shma bayonot va yana bir nechta muhim hujjat qabul qilindi. Jumladan, Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi hamda Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlarning katalogi va ularning oldini olish bo‘yicha 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan choralarni ishlab chiqish masalasi ko‘rildi. Ekologik masalalarda yakkidlikka intilishimiz, xavfsizlik masalasini uyg‘un holatda ko‘rishimiz ehtimoli bo‘lgan xatarlarni keskin kamaytiradi. Buni

“**D**avlatimiz rahbari iborasi bilan aytganda, **“Qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug‘i”** degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanib boraveradi.

tabiatdagi bir ajib hodisa orqali ifodalagimiz keldi. Aytishlaricha, qushlar uzoq manzilga yo‘l olganida to‘da bo‘lib uchsagina yaxlit idrokka aylanar va manzildan adashmay inini topib borar ekan. Global dunyo xatarlaridan chetlab o‘tishning ham yagona yo‘li birlik va hamjihatlikdadir.

So‘nggi yillarda “Markaziy Osiyo plus” formatidagi munosabatlar kuchaydi. Mintaqamiz xalqaro maydonda yagona pozitsiyani ilgari suriyapti. Shuningdek, mintaq jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashyapti. Investitsiyaviy jozibadorlik oshib, uchinchi bozorlarga eksport imkoniyati kengaymoqda, tranzit salohiyati oshmoqda. Masalan, o‘tgan yili mamlakatimiz o‘rtasidagi o‘zaro savdo qiymati 10,7 milliard AQSH dollariga yetdi. Mintaqamizga kiritilgan investitsiyaning umumiy hajmi 17 foiz ko‘paydi. Bu faktlar Markaziy Osiyoning yaxshi iqtisodiy imkoniyatlarga ega mintaq sifatida tan olinayotganidan dalolat.

Oldimizga yana bir baland marrani qo‘yganimiz. Bu ajdodlar yo‘lidan yurish — navbatdagi Uyg‘onish davriga asos solishdir. Uchinchi Renessans shunchaki orzu emas, aniq maqsad ekan yil sayin oydinlashib bormoqda. Prezidentimiz Maslahat uchrashuvida shu masalaga daxldor muhim tashabbusni ilgari surdi. Ya’ni **mintaqaviy ilmiy tadqiqotlar jamg‘armasi tuzishni taklif etdi.** Shu orqali davlatlararo ilmiy loyihalar moliyalashtiriladi. Akademik hamjamiyat rag‘batlantirilib, mintaqaning intellektual salohiyati mustahkamlanadi. Muhimi, bu mamlakatlarimizning ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal qilish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha imkoniyatini kengaytiradi.

Bu kabi katta marralarning zabt etilishi, umuman, o‘sha cho‘qqi sari tashlangan har bir qadam Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligini mustahkamlab boraveradi. Ayni damda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyati, taqdirimiz o‘zaro bog‘liq ekanini yanada chuqur anglaymiz.

Natijada davlatimiz rahbari iborasi bilan aytganda, **“Qo‘shnichilik — xavf emas, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati — barchaning yutug‘i”** degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanib boraveradi.

Katta tarixni nufusi yuqori, bulagi kuchga to‘lgan xalqlar yaratadi. Bugun Markaziy Osiyo aholisi 80 millionlik marradan o‘tdi. BMT prognozlariga ko‘ra, 2050-yilga borib, bu ko‘rsatkich 100 milliondan oshadi. Mazkur raqamlar bizga inson kapitali degan eng bebaho boylikni taqdim etadi. Markaziy Osiyo esa dunyoning eng yosh mintaqalaridan. Aholimizning o‘rtacha yoshi atigi 29 yoshni tashkil etmoqda. Bu biz ko‘zlagan umumiy o‘qqini zabt etishda yetarlicha quvvat bera oladigan dvigatel deyish mumkin.

So‘zimiz avvalida birdamligimiz, yagona mintaq bo‘lib jipslashish asriy orzu ekanini aytgandik. Dunyoni o‘ziga qaratgan, kerak bo‘lsa, ortidan ergashitgan xalqlarda ham muayyan muddat tin olish holati kuzatiladi. Ta’bir joiz bo‘lsa, quyosh ham ma’lum vaqtdan so‘ng ufqqa bosh qo‘yib, tag’in yana bo‘y ko‘rsatadi. Fikrimizni mintaqaviy aholisining joriy holati ham tasdiqlaydi. Axir ajdodlarimiz bejiz dunyoni charxpalakka o‘xshatmagan. Shu ma’noda, bugun Markaziy Osiyo cho‘michi suvga to‘lib kelayotgan yangilangan kuchdir.





Keyingi kunlarda Toshkent shahrida havo sifatining yomonlashib, chang zarralari miqdori me'yoridan oshgani odamlarni jiddiy xavotirga soldi. Shu yil 22-noyabr kuni poytaxt havosi ifloslanishi xavfli darajaga yetib, atmosferadagi PM 2,5 mayda dispersli zarrachalar miqdori belgilangan me'yordan uch barobar yuqori ekani qayd etildi. 24-noyabr kuni ham xuddi shu holat davom etdi. Shahar bo'ylab havoning ifloslanish darajasini kamaytirishga qaratilgan qator ishlar, xususan, qurilish maydonlarida chang ko'tarilmasligi uchun suv sepih, yo'llarni namlantirish tadbirlari bajarilganiga qaramay, atmosferadagi zararli chang zarrachalari saqlanib qoldi.

Masalaning yanada jiddiy jihati shundaki, havoning me'yoridan ortiq ifloslanishi Toshkent shahri uchun odatiy holatga aylanmoqda. Ayniqsa, kuz-qish mavsumida shahar aholisi ana shu muammo bilan yuzlashyapti. O'tgan yili ham masala ancha jiddiy tus olgani, hatto bunga qarshi keskin ekologik choralar ko'rilgani yodimizda. Biroq odamlar nazarida bu choralar yetarli bo'lmayapti. Havoning tobora ifloslanishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi jiddiy kurashish kerakligi aytilyapti. Masalan, qurilishlarni to'xtatish, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli moddalarni qat'iy nazoratga olish, istish mavsumida zaharli yoqilg'ilardan foydalanmaslik va hokazo.

Ahamiyatlisi, ayni shu masalalar davlat tomonidan qator huquqiy asoslar bilan tartibga solinayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Jiddiy ekologik choralar, qat'iy nazorat tadbirlari olib borilmayapti, desak xato bo'ladi. Boisi, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsad qilingan.

Xo'sh, nega unda hamon havo sifati yaxshilanmayapti? Nega poytaxt osmoni tez-tez changga to'lib, ifloslanish darajasi oshib boryapti?

Bunga bir vaqtning o'zida bir qancha omillar sababligi aytilmoqda. Shulardan biri tabiiy omillar, ya'ni global iqlim o'zgarishlari, xususan, yurtimizda yog'ingarchilikning tobora kamayib borayotgani va hokazo. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, havo haroratining keskin o'zgarishi ham changlanishni oshirmoqda. Bu inversiya jarayonini keltirib chiqaradi, mayda zarrachalarning pastki qatlamlarda to'planishi va atmosfera havosidagi konsentratsiyasi ortishiga olib keladi.

O'zgidromet direktori Sherzod Habibullaevning ma'lum qilishicha, havoda zararli zarrachalar ortishiga sabab bo'layotgan yana bir tabiiy omil bu — yog'ingarchilik yo'qligi. Sinoptiklar ma'lumotiga ko'ra, noyabr oyi boshidan beri Toshkentda deyarli yomg'ir yog'madi. Yog'ingarchilikning yetishmasligi havodagi mayda zarrachalarning tabiiy yuvilishini sekinlashtiradi va ularning atmosfera uzoq turib qolishiga sabab bo'ladi. Yana bir tabiiy omil — changlanish. O'zbekiston tabiiy jihatdan quruq va yarim quruq iqlim hududida joylashgani bois, o'simlik qoplamasi qisqarishi va iqlim isishi



Kun mavzusi

Ayni vaqtda Toshkent IESda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 97 foizini elektr energiyasi, qolgan qismini issiqlik tashkil etadi. Stansiyadan yetkazib berilayotgan issiqlik quvvati yaqin atrofdagi o'nlab korxona va tashkilotlar, shuningdek, Toshkent IES hududidagi ko'p qavatli uylar hamda issiqxonalarni issiqlik bilan ta'minlab kelmoqda.

SANOAT KORXONALARIGA QAT'IIY MUHLAT BELGILANDI

ta'sirida tabiiy changlanish oshmoqda. "Shuning uchun bu yil changlanish odatidagidan ko'proq namoyon bo'ldi. Hatto shamol past bo'lgan kunlarda ham PM 10 ko'rsatkichi oshishi kuzatildi. Mayda zarrachalarning ma'lum darajada saqlanib turishi tabiiy va mavsumiy holatdir. Havo barqarorlashishi bilan havo sifati o'z-o'zidan sezilarli yaxshilanadi", deb izohlaydi mutaxassis.

Talablar qat'iylashdi

Changlanish tabiiy hol ekan deb o'pkamiz zarari havoga to'lishini kutib o'tira olmaymiz. Bunday havoda muntazam nafas olish salomatligi uchun jiddiy muammolarni yuzaga keltirishi ko'pchilikka ayon. Ayniqsa, nafas yo'li xastaligi, allergik kasalliklardan aziyat chekadiganlar, bolalar changni osongina "yutib yubora" olmaydi. Qolaversa, global isish sabab yog'ingarchilik tobora kamayib boryapti. Demak, muammoga qarshi aniq, tizimli choralar ko'rish kerak. Hech bo'lmasa, havo sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ikkilamchi omillarni bartaraf etish, muqobil yechimlarni o'lash talab etiladi.

Prezidentimizning joriy yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ayni shu maqsadlarga qaratilgan. Mazkur qarorga binoan ekologiya sohasi bo'yicha yangi choralar dasturi

tasdiqlanib, aniq vazifalar belgilandi. Jumladan, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi issiqxona xo'jaliklarini tabiiy gaz bilan barqaror ta'minlash bo'yicha zarur tashkiliy-texnik chora-tadbirlar to'g'risida 2025-yil oxirigacha takliflar ishlab chiqiladi. Shu yil 1-dekabrda AYOQSHlarda AI-80 benzini sotuvi to'xtatildi, tig'iz vaqtlarda shaharda yuk mashinalari harakati cheklanadi. Qurilish obyektlarida havo sifatini o'lhovchi stansiyalar hamda kameralar o'rnatiladi va hokazo.

Eng ahamiyatli jihati, qaror bilan sanoat korxonalariga havo sifatini o'lhob turuvchi fon monitoring stansiyalarini o'rnatish uchun 2026-yil 1-martgacha muhlat berildi. O'zbekistondagi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I va II toifaga mansub sanoat korxonalari, xususan, sement zavodlari, neft, gaz, kimyo majmualari, teri ko'ng'ilchilik fabrikalari kabi atrof-muhit uchun xavfli korxonalar shu muddatga qadar monitoring stansiyasini o'rnatib, Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi bazasiga integratsiya qilishi shart. Aks holda, tabiatga zarar yetkazganlik uchun kompensatsiya to'lovi 5 baravar oshiriladi.

Ushbu turdagi korxonalar qatoriga elektr stansiyalari ham kiradi. Ya'ni poytaxt aholisiga issiqlik va elektr energiyasi yetkazib beruvchi stansiyalarda ham atrof-muhitga zararli tashlamalar chiqarish darajasi yuqori ekani, ayniqsa, mazut va shunga o'xshash yuqori ifloslantiruvchi yoqilg'i turlaridan foydalangan taqdirda, atmosfera jiddiy ta'sir ko'rsatishi sir emas. Shu bois, buning oldini olish, elektr stansiyalarida monitoring o'rnatish va atrof-muhitga chiqadigan zararli tashlamalarni belgilangan me'yordan oshirmaslik talab etilmoqda.

Mazut foydalanishdan chiqarilgan

Bu talab qanchalik bajarilayotgani, real holat bilan taqqoslash maqsadida Toshkent shahridagi issiqlik markazi korxonalarida bo'ldik. "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tizimidagi Toshkent issiqlik

markazi korxonasi tarkibida 9 ta issiqlik markazi mavjud. Ular poytaxt iste'molchilarining 75 foizini issiqlik bilan ta'minlaydi. Ishlab chiqarish jarayonida esa tabiiy gazdan foydalaniladi. Ayni shu ma'lumot qator savollarga sabab bo'ldi. Bizni qancha qozonxona borligi, ulardagi ta'mirlash ishlardan ko'ra, elektr stansiyalari issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gaz o'miga mazut va atmosfera uchun zararli boshqa yoqilg'ilardan qanchalik foydalanilishi, bu turdagi korxonalar havoga me'yoridan ortiq zararli tashlamalar chiqarishi qanchalik rostligi, buning oldini olish uchun qanday choralar ko'rilayotgani qiziqtirayotgan edi.

Biz turgan korxona mazut yoqishga moslashmagan va bu yoqilg'i amaliyotdan to'liq chiqarib tashlangan, — deydi Yakkasaryo tumanidagi Toshkent issiqlik elektr markazi gaz-turbina quirkimlari mashinisti Murodjon Ergashev. — Elektr va issiqlik energiyasi faqat tabiiy gaz asosidagi zamonaviy quirkimlar orqali ishlab chiqariladi. Davlatimiz rahbarining tegishli topshiriqlariga binoan poytaxtda elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda zamonaviy, ekologik toza quirkimlar joriy qilinmoqda. Mazkur markazda ham 2024-yilda quvvati 64 megavatt bo'lgan yangi 2 ta gaz-turbina quirkilmasi ishga tushirildi. Ular orqali yiliga qo'shimcha 515 million kilovatt-soat elektr va 630 gigakaloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Asosiysi, zamonaviy quirkilma hisobiga atrof-muhitga yiliga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar 200 tonnaga kamayishiga erishildi. Bu yerda havoga chiqindilar chiqishini monitoring qilish maqsadida statsionar kuzatuv punkti, ya'ni ekopostlar tashkil qilingan. Oqova suvni qayta ishlash uchun avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etilgan. Unda oqova suv har xil chiqindilar, zararli moddalaridan tozalamb, qayta foydalaniladi.

Korxonada 4 ta avtomatik monitoring stansiyasi va 1 ta ekopost o'rnatilgan bo'lib, zararli tashlamalarning chiqarilishi doimiy nazoratga olingan. Har bir trubadagi zararli moddalar nazorat

qilinadi. Jarayonda qaysidir zararli modda miqdori oshib ketsa, tizim signal beradi va ekologlar muammoni darhol bartaraf etadi. Gaz tarmoqlarida mexanik birikma filtrlari ham yangilangan. Bular hisobiga ishlab chiqarish jarayonida stansiya hududida zararli zarrachalarning tashlanishi deyarli 0,06 foizga tenglashdi. Bu me'yordan 100 barobar kam degani.

Zamonaviy texnologiyalar atmosfera zararli tashlamalar chiqishini sezilarli kamaytirish barobarida, tabiiy gazni yaxshigina iqtisod ham qiladi. Ya'ni elektr stansiyalarida bunday uskunalar talab hozir har qachongidan yuqori. Ammo yillar davomida ishlab kelayotgan, an'anaviy usulda issiqlik energiyasi ishlab chiqariladigan markazlar-chi, ularda ham ish jarayonida atmosfera ifloslangan zarrachalar chiqmasligiga ishonish mumkinmi?

Yurtimizda ilk issiqlik markazlari 1969-yilda qurila boshlagan bo'lsa, bugun ishlab turgan aksariyati 1980-yillargacha bunyod etilgan, — deydi "Toshkent issiqlik markazi" MCHJ direktori Behzod Bo'ronboyev. — O'shandayoq loyihada asosiy yonilg'i tabiiy gaz, zaxira yoqilg'isi esa mazut bo'lgan. Ya'ni issiqlik markazlari tabiiy gazga moslashtirilgan bo'lsa-da, favqulodda holatlarda mazut yoqilgan. Hozir ham Toshkent shahridagi 9 ta issiqlik markazidan 6 tasida mazut yoqish imkoniyati bor. Favqulodda holatlar uchun zaxira yoqilg'i sifatida mazut saqlanadi. Oxirgi marta 2023-2024-yilgi kuz-qish mavsumidagi anomal sovuqda mazut yoqilgan. Ammo o'tgan yilgi mavsumda mazutdan foydalanilmadi, bu yil ham bunday reja yo'q. Sababi mazutni yoqish texnologiyasi ancha qiyin va narxi ham gaznikiga nisbatan uch baravar qimmat. Yana bir jihati ta'kidlashni istardim, ko'pchilik o'ylaganidek, mazutni yoqanda havo birdan ifloslanib ketmaydi. Uning ham o'ziga yarasha yonish rejimi bor va doimiy ravishda me'yorlarga moslab turiladi. Agar me'yordan ziyod zararli tashlama chiqa boshlasa, darrov signal berilib, zarur chora ko'riladi. Shunga qaramay, tizimda mazut va shunga o'xshash yuqori ifloslantiruvchi yoqilg'i turlaridan butunlay voz kechish bo'yicha amaliy sa'y-harakatlar qilinmoqda.

Xususan, Toshkent issiqlik markazining 4-issiqlik markazi hududida joriy yil oxirida quvvati 100 megavatt bo'lgan yangi gaz-porshenli elektr stansiyasini ishga tushirish rejalashtirilgan. Yangi quvvat to'liq tabiiy gazda ishlagha moslashtirilgan. Xitoyning yirik kompaniyalari bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha doirasida 50 ta yangi ish o'rni ochilib, yiliga o'rtacha 876 million kilovatt-soat elektr va 784 ming gigakaloriya issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Natijada 15 million kub metr tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishiladi. Yangi quvvat ishga tushirilgach, o'rtacha 365 ming xonadonni elektr va 58 mingta xonadonni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yaratilishi aytilmoqda.

Asosiy masala yana ekologik xavfsizlikka borib taqaladi. Zamonaviy qurilmalarning tejamlorligi, faqat tabiiy gazga moslashgani yaxshi, albatta. Ammo hali bunday quirkimlar o'rnatilmagan issiqlik markazlari ham yo'q emas. Ularda muammo qanday hal etilayotgani bilan qiziqdik.

— Masalan, Qibray tumanidagi "Toshkent IES" AJda ekologik muvozanatni ta'minlash maqsadida joriy yilda energiya blokalaridan chiquvchi tutun-gaz tarkibini tozalash uchun "Yengil filtr" quirkilmasi

o'rnatilib, ishga tushirildi, — deydi stansiya bo'lim boshlig'i Berdaq Aytmuratov.

Korxonaning asosiy faoliyati elektr energiyasi ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, yil boshidan buyon faqat tabiiy gazdan foydalanaymiz. Yangi filtr quirkilmasi to'liq avtomatlashtirilgan tizimda ishlaydi va soatiga 1,5 million kub metr tutunni tozalaydi. Filtni o'rnatish natijasida atmosfera chiqadigan tutun tarkibidagi qattiq zarrachalar konsentratsiyasi 100 milligramm kub metrdan 6 milligramm kub metrgacha kamaytirishga erishildi. Shuningdek, korxonada quyosh fotoelektr stansiyalari va suv isitkichlari o'rnatilishi orqali yiliga 110,7 tonna tashlama

chiqishining oldi olinib, issiqlik tizimida texnik suvdan foydalanish natijasida 350 ming kub metr ichimlik suv tejalmokda. IESda tutun chiqaruvchi 3 ta mo'riga zamonaviy, yuqori aniqlikka ega avtomatik monitoring stansiyalari ham o'rnatilgan. Ular orqali zararli tashlamalar doimiy nazorat qilib boriladi.

Ayni vaqtda Toshkent IESda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 97 foizini elektr energiyasi, qolgan qismini issiqlik tashkil etadi. Stansiyadan yetkazib berilayotgan issiqlik quvvati yaqin atrofdagi o'nlab korxona va tashkilotlar, shuningdek, Toshkent IES hududidagi ko'p qavatli uylar hamda issiqxonalarni issiqlik bilan ta'minlab kelmoqda. Ishlab chiqarish jarayoni esa to'liq nazoratda ekani, korxonada atrof-muhitga chiqadigan zararli tashlamalar me'yordan oshirilmaligi aytiladi.

Aslida, yurtimizdagi barcha sanoat korxonalariga ana shu talab qo'yilayapti — ularning faoliyati ekologiya buzilishi, havoning ifloslanishiga sabab bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Mazkur farmonga binoan maxsus komissiya tuzilib, ijroni ta'minlash topshirildi. Endi maxsus komissiya atmosfera ifloslanishiga sabab bo'layotgan barcha omillarni bartaraf etishi, jumladan, sanoat va ishlab chiqarish korxonalarida filtrlar o'rnatish bo'yicha qonunchilik talabari bajarilishini nazorat qiladi.

Iroda TOSHMATOVA
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Islohotlar samarasi

Yaqin-yaqingacha qishloq xo'jaligi deganda ko'z oldimizga faqat paxta va g'alla kelardi. Ayniqsa, "oq oltin"ga mamlakatning asosiy va muhim strategik xomashyosi sifatida qaralardi. Agrar sohaga daxli bor ham, daxli yo'q ham — hamma chigiti ekishdan tortib, paxtani yig'ib olishgacha bo'lgan jarayonga safarbar etilardi. Butun mamlakat aholisining hayoti qaysidir ma'noda paxtaga bog'lanib qolgan edi.

Kuz kelishi bilan paxta terimi butun xalqqa kelgan umumiy hashar — "to'y" sifatida e'lon qilindi. Maktablar, shifoxonalar, qo'ng'irlik, davlat idorasiyu bozorlar ommaviy yopilar, hamma hasharga safarbar etilardi. U kunlarning azob-uqubatini xalqimiz hali-hanuz unungani yo'q. Lekin shuncha chekkan zahmatiyu tashvishiga qaramay, paxta ekib, qishin-yozin daladan beri kelmaydigan dehqonning kosasi oqarmadi. Hatto paxtaning ortidan davlat ham tarqayiq etib ketmadi. Aksincha, majburiy mehnat, norasida bolalarning terimiga jalb etilishi kabi inson huquqlariga zid xatti-harakatlar tufayli ko'plab rivojlangan mamlakatlar o'zbek paxtasiga boykot e'lon qilgani yaqin o'tmishning achchiq haqiqati edi. Dunyo tajribasidan kelib chiqqan xulosa shuki, byurokratik dastaklar yoki ma'muriy buyruqbozlik yo'li bilan hali biror soha gullab-yashnab ketmagan. Aksincha, erkinlik berilmagan, ortiqcha aralashuvlar sohaning kelajagini barbad qilgan. Bugungi zamonaviy dunyoda bunga ilqilgan misol keltirish mumkin.

Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin degan gap bejiz aytilmagan. Shunga qaramay, yaqin



yillarga qadar dalasiga nima ekish, qanday ekish, qachon ekish kerakligi butun umrini qishloq xo'jaligiga bag'ishlagan tajribali dehqonlar yoki shu sohada suyagi qotgan malakali agronomlarga qo'yib berilmadi. Hududlarning iqlim sharoiti, tuproq tarkibi, unumdorligi, suv resurslari holati va taqsimoti inobatga olinmadi. Sohaga innovatsiyalar qo'llanmadi, zamonaviy bilimlar asosida yondashish esa hech kimning xayoliga kelmadi. Pirovardida yerlarning hosildorligi yildan yilga kamayib bordi. O'zibo'larchilik, korruptsiya avj oldi. Davlatning safarbar etilgan resurslari yillar davomida kutilgan samarani bermadi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida tub islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgach, vaziyat o'nglana boshladi. Sohada bozor munosabatlari joriy etish, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha juda ko'p ishlar qilindi. Fermer va dehqonlarning

daromadini oshirish maqsadida yangicha tizim joriy etilib, ko'plab dolzarb masalalar hal qilib berildi. Har yili yetarlicha mablag' ajratilyapti. Irrigatsiya va gidroinshootlarni modernizatsiyalash orqali tuproq unumdorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmokda.

Yangilaniqlar tufayli qishloq xo'jaligiga munosabat ham tubdan o'zgardi. U faqat xomashyo yetishtiruvchi tizimdan katta daromad olish kafolatlangan iqtisodiy shohaga aylandi. Dehqon-fermerlarga erkinlik, imtiyoz berildi. Byurokratik to'siqlar, aralashuvlarga butunlay chek qo'yildi.

Dalasiga nima ekishni, qanday innovatsion yechimlarni qo'llashni bugun fermerning o'zi hal etmoqda.

Manfaat, foyda, daromad va biznes qilishga imkoniyat bor joyga investitsiya oqib keladi. Bugun qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalarga nafaqat mahalliy tadbirkorlar, balki xorijlik sarmoyadorlar



ham hech ikkilanmay pul tikayotgani fikrimizning yorqin tasdiqi'dir. Demak, davlat islohotchi sifatida tizimga zamonaviy bozor mexanizmlarini qo'llay oldi. Samarasi esa bugun yurtimiz bozorlaridagi to'kin-sochinlikda, xalqimizning farovon hayoti misolida sezilayotir.

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Bugun sohaning iqtisodiyotdagi ulushi 20 foizni tashkil etmoqda. Unda yiliga 467 trillion so'mlik mahsulot yetishtirilib, 3,5 million kishi mehnat qilaypti. Shu bilan birga, yangi va qayta ishlangan mahsulotlar umumiy eksportning uchdan bir qismini ta'minlamokda.

Yaqinda Prezidentimiz huzurida paxtachilikda samaradorlikni ilg'or tajriba va texnologiyalar asosida oshirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'tkazilgan takliflar taqdimotida shu haqda so'z bordi. Jumladan, paxtachilikda hosildorlikni oshirish, sohaga

innovatsiyalarni keng tatbiq etish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Past hosil olayotgan fermerlar bilan manzilli ishlash, ilg'or agrotexnologiyalar va oziqlantirish amaliyotlarini to'g'ri joriy etish, agronom tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralari belgilab olindi. Shuningdek, paxtachilikda "ustoz-shogird" an'analarini yo'lga qo'yish orqali hosildorlikni 60 sentnerdan oshirgan ilg'or fermerlarni 30 sentnerdan kam hosil olgan fermerlarga birkirish taklif qilindi.

Ilg'or fermerlar Qishloq xo'jaligi malaka oshirish institutida qayta tayyorlanib, sertifikat taqdim etiladi. Past hosil olgan fermerlarda hosildorlik kamida 50 sentnerdan osha, ularga birkirtilgan ilg'or fermerlarga 5 million so'mdan mukofot puli beriladi. Agronomlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Toshkent davlat agrar universiteti va agronomlarni tayyorlaydigan boshqa oliy ta'lim muassasalari

bitiruvchilari uchun ikki yillik "dual ta'lim" mexanizmi joriy etiladi. Ilg'or klaster va fermer xo'jaliklarida amaliyot o'tagan talabalarga stipendiya, ularni o'qitgan mutaxassislarga esa rag'bat puli beriladi.

Yig'ilishda mahalliy paxta navlarini yaratishga ham alohida e'tibor qaratildi. Yurtimizda ayni paytda paxtachilik yo'nalishida ikkita noyob ilmiy institut — Genomika markazi va Paxtachilik instituti faoliyat yuritmoqda. Navlarni seleksiya qilish asosida paxta urug'chilgini yanada rivojlantirish maqsadida ushbu institutlarda fitotron va reproduksion issiqxona quriladi. Natijada yangi mahalliy nav yaratishga zarur bo'lgan muddat 2,5 barobar qisqaradi. Olimlarning ishi tezlashib, import urug'ga ehtiyoj qolmaydi.

Kelgusida g'o'zani plyonka ostida ekish tajribasi omallashtiriladi. Qishloq xo'jaligiga sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar joriy etiladi. Hozir Qishloq xo'jaligi vazirligi va xorijiy kompaniyalar hamkorligida bu borada kadrlar tayyorlash va ilmiy infratuzilma yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar bajarilaypti.

Taqdimotda qishloq xo'jaligi sohasi xodimlari uchun muhim yangilik ma'lum qilindi: endi tarmoqni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha butunlay yangicha tizim tatbiq etiladi. Kelgusi yildan paxta-g'alla, mevalar va dukkakli ekinlar bo'yicha hosilni ixtiyoriy suv'urtalash tizimi yo'lga qo'yiladi hamda sug'urta mukofotining 50 foizi byudjetdan qoplab beriladi.

Subsidiyalar tizimini soddalashtirish uchun hozir turli idoralar tomonidan berilayotgan 75 turdagi subsidiyani yagona platforma orqali ajratib boradigan Agrar sohada to'lov agentligi tashkil etiladi. Bu fermerlar uchun ortiqcha ovoragarchilik va byurokratiyani keskin kamaytiradi.

Qisqasi, xalqimiz dasturxonini to'kinligi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mazkur sohaning o'rni va ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas. Shu bilan birga, agrar tarmoqni jadal rivojlantirish orqali serquyosh zaminimiza yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorlarda keng targ'ib qilish imkoniyati kengayadi.

Yunus BO'RONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

KONSTITUTSIYA —

INSON QADRI, ERKINLIK, TENGLIK VA ADOLAT GAROVI!

YOSHLAR-UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORI



G'ofur ABDILAKIMOV,
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
o'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i, professor

Boshlanishi 1-betda

Bugun yangi O'zbekistonda ana shu ezgu g'oya asosida kechayotgan islohotlar yoshlarning oilada, ta'limda, umuman, hayotda munosib o'rin egallashi uchun barcha uchun teng sharoit yaratib berishga qaratilgani bilan alohida ajralib turadi.

Bunday ishlar poydevori, avvalo, bosh qonunimiz — Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yildi. Uning XIV bobii oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlangan. Xususan, 79-moddada “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi, deyiladi.

Bosh qonunimizda belgilangan ana shu qat'iy talab va tartib bugun yoshlarimizning oilada, jamiyatda to'kis hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qilyapti. Davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, hozirgi kun yoshlari yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlod vakili sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday misollarga keyingi paytlarda juda ko'p duch kelyapmiz. Uzoqqa bormaymiz: kuni kecha tarqalgan xabarni qarang: “O'zbek o'g'loni

Javohir Sindorov shaxmat bo'yicha jahon kubogi g'olibi bo'ldi!”.

Dunyoning 200 dan ortiq sara shaxmatchisi bosh sovrin uchun kurashgan musobaqada mutlaq g'oliblikka erishishning o'zi bo'lmaydi, albatta. Bu yangi O'zbekistonda yoshlar har doim e'tiborda, e'zozda, qo'llab-quvvatlovda bo'lishi ortga qaytmas islohotlarning asosiy mazmun-mohiyatida mujassam ekanini anglatadi. Axir oilada muhit shakllanmasa, jamiyatda sharoit yaratilmasa, mamlakat imkoniyat bermasa, shunday natijaga erishish mumkinmi?! Menimcha, yo'q.

Bundan sakkiz-to'qqiz yil oldin yo'lga qo'yilgan “ilm — tarbiya — innovatsiya” zanjiri naqadar to'g'ri ekanining samarasi bu. Bugun “Ta'lim — kelajak sarmoyasi” degan ezgu g'oya jamiyatimizda katta harakatga aylanmoqda. Buni yoshlarimiz ham to'g'ri anglab yetmoqda, tushunmoqda va shunga intilmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar davom etmoqda. Buning huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida

uchun qilinayotgan sa'y-harakatlar samarasi. Erishilgan natijalar chegara emas. Qilinadigan ishlar ko'p. Jumladan, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilanganidek, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirib borish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash, oliy ta'lim muassasalari ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



“Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. O'zbekistonda 30-iyun — Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni rag'batlantirib borish maqsadida “Mard o'g'lon” davlat mukofoti va “Kelajak buniyodkori” medali ta'sis etildi.

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtaidasi kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbus amalga oshirilmogda.

Yoshlarga oid islohotlarimizni xalqaro hamjamiyat ham keng e'tirof etmoqda.

o'tkazish, “top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar hamda butun dunyo bo'ylab ish ta'lim dasturi asosida “ikkiti diplomli tizim”ni joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish, kasb-hunariga o'qitishda xususiy sektor ulushini ko'paytirish, maktab bitiruvchilariga kamida 2 ta xorijiy til va bitta kasb egallashi uchun sharoit yaratish kabi ko'plab vazifalar turibdi.

Mamlakat taraqqiyoti va kelajagini sog'lom, bilimli, madaniyatli yoshlar belgilab beradi. Ularning kuchi shunda. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati, avvalo, yoshlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu uzluksiz jarayonga aylangani bilan ahamiyatlidir.



TARIXIY NATIJALAR VA YANGI REKORDLAR SARI

Yaponiyaning Tokio shahrida bo'lib o'tgan XXV yozgi Surdlimpiya o'yinlarida yurtimiz vakillari tarixiy natijalar va yangi rekordlarni qayd etdi

Yurtimizda sportga, shuningdek, para-sportga qaratilayotgan e'tiborning amaliy natijasi musobaqalarda erishilayotgan ulkan g'alabalarda o'z aksini topmoqda. Birgina Parij Olimpiadasini olaylik: sportchilarimiz 8 oltin, 2 kumush va 3 bronza, jami 13 ta medal bilan 13-o'rinni, paralimpiyachilarimiz 10 oltin, 9 kumush va 7 bronza medalni qo'lga kiritib, 13-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich o'zbekiston sportchilar qatnashgan Olimpiadalarda tarixida rekord natija hisoblanadi.

Prezidentimiz raisligida joriy yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida parasport imkoniyatlariga alohida to'xtalib o'tilgan edi.

Yig'ilishda, shuningdek, hududlardagi 39 ta sport maktabi parasport turlariga ixtisoslashtirilishi, nogironligi bo'lgan yoshlarni imkoniyatiga qarab boshqa sog'lom sport guruhlarida ham shug'ullanishiga sharoit yaratilishi, parasport turlari bo'yicha terma jamoalarni shakllantirish tartibi o'zgartirilishi xususida ham so'z borgandi. Shunga ko'ra, bundan buyon yoshlar faqat musobaqa natijasiga qarab emas, balki sport normativlarini bajarishiga qarab ham terma jamoaga qabul qilinadi. Bunda nogironligi bo'lgan sportchilarning ko'rsatkichlarini monitoring qilib boradigan alohida onlayn platforma bo'ladi.

Musobaqa va sport yig'inlari tashkil qilishda olimpiya va paralimpiya tizimiga o'tiladi. Ya'ni qayerda chempionat bo'lsa, unga yonma-yon parasport musobaqasi ham o'tkaziladi, yig'inlar ham birgalikda tashkil qilinadi. Bu haqiqiy inkluziv tizimga aylanadi, nogironligi bor sportchilar uchun ishonch va rag'bat bo'ladi. Mazkur o'zgarishlar adaptiv sport bilan shug'ullanayotgan yoshlarga o'z iste'dodini to'la namoyon etish imkonini beradi.

Tokio shahrida o'tgan XXV yozgi Surdlimpiya o'yinlarida bu o'zgarishlarning

amaliy ifodasi yaqqol ko'zga tashlandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Surdlimpiya o'yinlari — Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga o'xshash tarzda har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi va unda eshitishida nogironligi bo'lgan sportchilar ishtirok etadi. Ushbu yirik musobaqa 1924-yildan buyon tashkil etib kelinadi.

15-26-noyabr kunlari bo'lib o'tgan XXV yozgi Surdlimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi futbol, stol tennis, dzyudo va taekvondo bo'yicha musobaqalarda ishtirok etdi. Sportchilarimiz musobaqada taekvondo bo'yicha yaxshi natijalarni qayd etishdi.

Taekvondoning pumse yo'nalishi bo'yicha tatamiga chiqqan O'zbekiston turkumiy, Robiya Miraskarova va Asadbek Turdiyev bronza medallarni qo'lga kiritdi. Shuningdek, Dilbar Tojiboyeva (-49 kg), Shahrizoda Nuriddinova (-57 kg), Hojiakbar Hokimov (-58 kg) yakka sparring bahslarida ishtirok etib, finalgacha bo'lgan janglarda muvaffaqiyatga erishib, yakunda kumush medallar bilan kifoyalanishdi. Shohro'z Abdurahmonov (-68 kg) esa yarim finalda xitoylik sportchiga imkoniyatni boy berib, bronza medal bilan cheklandi.

Taekvondoning sparring bahslarida Maftuna Abdiyusupova (+67 kg) xitoylik Liu Linhuani mag'lub etib, yarim finalga chiqdi. Yarim finalda eronlik Shahbozi Nasibeh ustidan g'alaba qozonib, finalga yo'l oldi. Finalda kuchli raqib — xorvatiyalik Matea Kolovratga qarshi bahs oson kechmadi va Maftuna kumush medalni qo'lga kiritdi.

XXV yozgi Surdlimpiya o'yinlaridagi tarixiy natijani ham taekvondochi qizimiz Go'zal Eshmirzayeva (+67 kg) qayd etdi. U qozog'istonlik Aida Makatovani, so'ng yunonistonlik Machairidou Eirinigani ishonchli tarzda mag'lub etib, finalga chiqdi. Finalda Janubiy Koreya vakili Leye Jin Young bilan kurashda qo'l bolidan kelib, O'zbekiston tarixida Surdlimpiya o'yinlarining ilk oltin medalini qo'lga kiritdi.

Braziliyada o'tgan XXIV Surdlimpiya o'yinlarida 3 ta bronza medal olgan sportchilarimiz



Mamurjon AHLIDINOV,
O'zbekiston karlar sport federatsiyasi bosh kotibi

bu safar rekord natija — 1 oltin, 4 kumush va 4 bronza bilan O'zbekiston Surdlimpiya tarixidagi eng yuqori natijani qayd etdi. Eng qizig'i, 14 yoshli Robiya Miraskarova bronza medal olgan eng yoshi sportchi sifatida qayd etildi. Shahrizoda Nuriddinova esa 15 yoshida kumush medalni qo'lga kiritdi. Robiya va Shahrizoda Toshkent shahridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 8- va 9-sinfida o'qiydi.

Bu g'alabalarda zamirida, albatta, O'zbekiston karlar sport federatsiyasi tomonidan to'laqonli shart-sharoitlar yaratib berilayotgani hamda taekvondo bo'yicha murabbiylar — Davron Xidirov va Sobir Nazaraliyevning yillar davomidagi mashaqqatli mehnati, fidoyiligi hamda jamoani shakllantirishdagi xizmatlari bor.

Yaqinda Prezidentimiz Olimpiya shaharchasidagi stadiona ulkan sport bayrami — Prezident Olimpiadasining tantanali ochilish marosimida katta ishonch bilan ta'kidlaganidek, “Hech shubhasiz, yangi O'zbekistonning sport tarixini yuzlab irodasi mustahkam, jasur va matonatli, yuksak intellektual salohiyatga ega o'g'il-qizlarimiz yaratmoqda. Ularning boshi uzra Vatanimiz bayrog'i hamisha mag'rur hilpirab tursin!”.

Bandlik



Botir USMONOV,
texnika fanlari doktori,
professor

Asosiy maqsad kasbiy va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini xalqaro standartlarga javob bera oladigan, raqobatchilik, yuqori malakali mutaxassislar sifatida tarbiyalashdir. Butun dunyo bo'ylab oliy ta'lim muassasalarining asosiy maqsad va mas'uliyatlaridan biri bitiruvchilarni asosiy ko'nikma va malakalar bilan ta'minlab, ularni mehnat bozoriga tayyorlash. Ish beruvchilarning yangi STEM bitiruvchilariga talabi ortib borgan sayin bitiruvchilarning malaka talablarini yaxshiroq tushunishga ehtiyoj ham ko'paydi. Endilikda faqat ilmiy darajalar yetarli emas, chunki ish beruvchilar globallashuv davri talablariga javob berish va kompaniyalari raqobatchilikdoshligini ta'minlash uchun umumiy ko'nikmalarga ega bo'lgan salohiyatli STEM bitiruvchilariga muhtoj.

Jahon tajribasiga ko'ra, shaxsning muvaffaqiyatli faoliyati va jamiyat taraqqiyotining asosi zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Biroq tez rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida ish beruvchilarning talablariga javob berish tobora murakkablashmoqda. Misol uchun, O'zbekistondagi ish beruvchilar, avvalo, bo'lajak xodimlardan ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va keng dunyoqarash kabi ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, doimiy ravishda malaka oshirishni taqozo etadi.

MEHNAT BOZORINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASH

OLIV TA'LIM TIZIMINING ASOSIY MAQSADLARIDAN BIRI

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, professional va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy talablarga mos ravishda isloh qilish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmogda. Bu islohotlar mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, shuningdek, global mehnat bozorida raqobatchilikdosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqayotir.

Zamonaviy kasblar va ish o'rinlari odatda bitta emas, balki o'zaro bog'liq bir necha vazifani hal qilishni nazarda tutadi va xodimdan tegishli ko'nikmalar majmuasini talab qiladi. Agar X turdagi ko'nikma bo'lmasa, hatto yaxshi rivojlangan Y turdagi ko'nikmalar ham talab qilinmaydi va o'z qiymatini yo'qotadi. Misol uchun, kasbiy jihatdan malakali, ammo ijtimoiy va kognitiv ko'nikmalari muloqotga kirishuvchanlik, jamoada ishlash qobiliyati, yangi tajribalarga ochiqlik, hissiy barqarorlik va boshqalar) zaif bo'lgan muhandis ish beruvchi uchun faqat cheklangan ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda ishlash chiqarishdan xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan iqtisodiyotga tez o'tish ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan ko'nikmalar va mehnat bozorida mavjud bo'lganlar o'rtasidagi nomuvofiqlikka olib keldi. Malakalar nomuvofiqligi bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalarida o'qish orqali olgan bilimlari va mehnat bozorida talab qilinadigan haqiqiy ko'nikmalar o'rtasidagi farqdir. Bu umumiy mehnat talabi va umumiy mehnat taklifi o'rtasidagi tafovutni bildiradi. Ko'nikmalarining umumiy nomuvofiqligi mahorat bo'shliqlari va mahorat yetishmasligi bilan bog'liq. Mahorat bo'shliqlari esa ish beruvchi ishchilar o'zlarining hozirgi rolini muvaffaqiyatli bajarish uchun yetarli vakolatlariga ega emas deb hisoblanadigan holatlardir. Bu mavjud ishchi kuchi korxonalar tomonidan talab qilinadigan ko'nikmalarga ega bo'lmaganida yoki korxonalar ishchilar ega bo'lgan ko'nikmalardan muqobil foydalana olmaganda yuzaga keladi.

Kuzatuvlar bitiruvchilarning malakalari va qobiliyatlarini hamda butun dunyo bo'ylab ish muhitining talabari va takliflari o'rtasidagi tafovutning kengayishi bilan bog'liq tashvish ortib borayotganini ko'rsatadi. Bunday nomuvofiqlik ishsizlik va to'liq ishsizlikni keltirib chiqaradigan, ishlash chiqarish quvvatlariga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan mehnat bozorida samarasizlikning muhim manbai hisoblanadi. U bir ishciga to'g'ri keladigan ishlash chiqarishning kamayishi tufayli unumdorlikka zarar yetkazadi,



o'rtacha mehnat xarajatlarini oshiradi, qat'iy darajadagi rentabellik, korxonalarining innovatsiyalar kiritish hamda o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashish xususiyatiga ta'sir etadi. Makroiqtisodiy darajada esa iqtisodiy o'sish, raqobatchilikdoshlik va innovatsion salohiyatga to'sqinlik qiladi.

Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarni yuqori samaradorlikka va mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishga tayyorlashga, auditoriyada o'rganilgan saboqlarning kelajakdagi martaba imkoniyatlari bilan qanday bog'liqligini tushunishga yordam berishga vakolatlidir. Ular ish beruvchilarga o'z tashkilotlarining joriy va kelajakdagi faoliyati uchun iste'dodlarni tanlash imkoniyatini berish, shuningdek, o'z o'quv dasturlariga malaka va ko'nikmalar standartlarini integratsiya qilish hamda yaratish vakolatiga ega. Ish beruvchilarni kursni loyihalash va topshirishga jalb qilish, kurs

mazmunining dolzarbligi haqida fikr bildirish, talabalar loyihalari uchun materiallar va g'oyalar bilan ta'minlash, tashqi mutaxassislarning ma'ruzalarini kiritish kabilar muhim. Shuningdek, talabalarining hayotiy vaziyatlarda ko'nikmalarini o'rllash imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun innovatsion o'qitish usullarini qo'llash va haqiqiy baholashni amalga oshirish ham oliy o'quv yurtlarining vakolatlariga kiradi. Oliy ta'lim hozirgi ish joyining doimiy o'zgaruvchan va murakkab ehtiyojlariga javob bera oladigan yuqori malakali bitiruvchilarni shakllantirishi kerak. Bitiruvchilarning o'qish davomida olgan ko'nikma va malakalari mehnat bozori ehtiyojlariga mos keladimi yoki yo'qligini baholash uchun STEM ta'lim dasturlari ish joyida talab qilinadigan ko'nikmalarni qamrab olishi lozim. Olimlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga mazmunli hissa qo'shishi uchun oliy ta'limning kengayishi bozor talabiga mos kelishi kerakligini ta'kidlaydilar. Oliy o'quv yurtlari va mehnat bozori/ish beruvchilar o'rtasidagi mustahkam va yaqin munosabatlar kasbiy va akademik ta'lim o'rtasidagi sun'iy bo'linishni bartaraf etishga, ish va o'rganishni osonlik bilan birlashtiradigan ekotizimni yaratishga yordam beradi. Bu komponentlarning hamkorlik va biznes modellarga aylanishini tushunishga hissa qo'shadi deb ishoniladi. Ishchilar odatiy bo'lmagan muammolarni hal qilishi va murakkab muloqotga taalluqli bo'lgan kognitiv hamda ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishi kutiladi.

Oliy ta'lim muassasalari soni, o'qishga qabul qilish va bitiruvchilar soni ortib borayotganiga qaramay, O'zbekistondagi mehnat bozori cheklangan miqdordagi bitiruvchilarni o'zlashtirishda davom etmoqda, shu bilan birga, har yili minglab odamlar ishsiz qolmoqda. Oliy ta'lim sifati, dolzarbligi va oliy ta'lim bitiruvchilari

ko'rsatkichlari hamda mehnat bozoriga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi nomuvofiqlik muammo bo'lib qolmoqda. Mamlakatni tubdan rivojlantirish uchun malakali kadrlar yetishtirish dolzarb bo'lib turibdi. Xuddi shunday, turli hududlardagi ish beruvchilar tomonidan talab qilinadigan qobiliyat yetishmasligi, texnik va boshqa ko'nikmalar sayozligi haqida shikoyatlar mavjud, bu esa mamlakatdagi oliy ta'lim bitiruvchilarning mehnat samaradorligi darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizdagi oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashning hozirgi sur'atlarini oshirish uchun mehnat bozorida malaka ehtiyojlari va oliy ta'lim malaka talablaridagi mavjud bo'lgan ba'zi bilim bo'shliqlarini to'ldirish zarur. Bunda ish beruvchilarning malaka ehtiyojlari tez sur'atda baholash va oliy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ularning ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. U milliy va xalqaro universitetlar, talabalar, ish beruvchilar, siyosatchilar va ish bilan ta'minlanganlik bilan bog'liq manfaatdor tomonlarga joriy dinamik texnologik davrda talab qilinadigan ko'nikmalarni tanqidiy baholash va aniqlashda hamda oliy ta'lim va bandlikning ortib borayotgan xalqarolashuvda ularning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini kuchaytiruvchi siyosatlarini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda baholashda yordam beradi. Davlat universitetlarida muhandislik fanlari bo'yicha o'sib borayotgan qabul va bitiruv ko'rsatkichlariga manfaatdor tomonlarning ehtiyojlariga asoslangan milliy kompetensiya va ko'nikmalarni ishlab chiqishni rag'batlantiradi. Bu, o'z navbatida, oliy ta'lim va ish beruvchilarga bitiruv malakalarini ish beruvchilarning malaka ehtiyojlari bilan moslashtirish muammolarini hal qilishga ko'maklashadi.



Yo‘l puli to‘lamagan o‘quvchi

Bu voqeani bir ayol aytib bergandi: “Ikki o‘g‘lim darsdan so‘ng ingliz tili bo‘yicha o‘quv markaziga qatnaydi. Uyim Chilonzorda, o‘quv markazi “Oloy” bozori yaqinida joylashgan. Farzandlarim u yergacha ikkita avtobus almashib boradi va shahar transport kartasi — “ATTO”dan foydalanadi.

Bir kuni katta o‘g‘lim xursand bo‘lib uyga kirib keldi va: “O‘yjon, bugun zo‘r ish qildim, ikki marta avtobusga pul to‘lamay tushib ketdim, hech kim to‘lashni talab qilmayapti” deb maqtanib qoldi.

Bu gapni eshitgach, ustimdan kimdir sovuq suv quygandek bo‘ldi. O‘g‘limning qilgan ishidan astoydil jahlim chiqdi. Allohga shukr, o‘zim ham, xo‘jayinim ham ishlaymiz, tirikchiligimiz yaxshi o‘tib turibdi, uyimiz, mashinamiz bor. Uyda hamma narsa yetarli, boshqacha aytсам, yo‘l pulidan iqtisod qilingan mablag‘ga qarab qolgan joyimiz yo‘q. Shunday ekan, o‘g‘lim nega bunday ishga qo‘l urganini tushuna olmay, bir zum o‘ylanib qoldim. Chunki bugun yo‘l haqini to‘lamagan bola ertaga maktabdan biror narsani o‘g‘irlab kelishi ham mumkin-da.

O‘g‘limni bu ishi uchun yaxshilab koyidim. Kechqurun dadasi ham urishdi. Unga ikkinchi marta bunday qilmaslik kerakligini, bu ish yomon ekanini, buning uchun katta jarima to‘lash mumkinligini tushuntirdi. Shundan buyon ularning transport kartalari raqamlarini o‘z telefonimga ulab qo‘yg‘anman. Yo‘lkira haqini to‘lashini muntazam nazorat qilib boraman. O‘g‘illarim ham yo‘l pulini doimo to‘laydigan bo‘ldi. Avtobusga pul to‘lamasdan yurish noto‘g‘ri ekanini tushunib yetishdi”.

Onaning kuyinib aytgan bu hikoyasi juda oddiy, afsuslanishga ham, birovga aytishga ham arzimaydigan gapga o‘xshaydi. Aslida, tarbiya shunday oddiy holatlardan boshlanadi. Ona to‘g‘ri aytdi, agar bolani vaqtida qaytarmasangiz, “Yaxshi ish qilibsan, o‘g‘lim, ertaga ham shunday qil” desangiz, u pul uchun boshqa ishlarga ham qo‘l uradi. Bugun avtobusga pul to‘lamasdan yurishni o‘rgangan bola ertaga taksi pulini to‘lamasdan qochib ketadi. Uchinchi kuni do‘konga o‘g‘irlikka tushadi. Yengil pul topishga o‘rgangan o‘smirni keyin bu yo‘ldan qaytara olmaysiz. Xullas, bu yaxshilikka olib bormaydi.

Yosh bolaning tanbehi

Bir o‘rog‘im o‘tgan asming oxirlarida Riga shahriga borgan ekan. Ko‘chadagi kichik do‘konchadan muzqaymoq sotib olibdi va yeb bo‘lgach, muzqaymoq o‘ralgan qog‘ozni yo‘l chetiga tashlabdi. Shunda ortidan bir yosh bolaning baqirgan ovozi eshitilbdi. Qayrilib qarasa, maktab formasini kiygan o‘n-o‘n bir yoshlardagi bolakay unga o‘z tilida nimalardir debdi.

“Tilini bilmasam-da, lekin harakat va imo-ishoralaridan uning nega qog‘ozni ko‘chaga tashladig, tezda olib, chiqindi qutisiga tashla deyaoyaganini tushundim. Begona shaharda edim, hech bir tanishim bu voqeani ko‘rmayotgandi. Shunday bo‘lsa-da, avvalo, o‘z ishimdan,

qolaversa, shu yosh boladan dashnom eshitganimdan xijolat bo‘ldim, uyali b ketdim”, degandi u.

Bizda ham muzqaymoq yoki boshqa biror yegulikni yeb, qutisini ko‘chaga tashlash hollari ko‘p uchraydi. Bolalar ham, kattalar ham qiladi bu ishni. Lekin ularga maktab o‘quvchilari u yozda tursin, kattalar ham tanbeh berganini ko‘rmaganman. Aksincha, ba‘zi ota-onalar bolalariga muzqaymoqni yeb bo‘lgach, qog‘ozini ko‘chaning chetiga tashlab yuborishni maslahat beradi. Bola esa ota-onasi yoki akasi aytgan ishni qiladi.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, atrof-muhitni asrashni, ifloslantirmaslikni, umuman, chiqindilarni ko‘chaga emas, maxsus qutilarga tashlash kerakligini bolalarga yoshligidan o‘rgatishimiz kerak. Ularga uyda, bog‘chada, maktabda bu haqda gapirishimiz shart. Rigada o‘rtog‘im bilan bo‘lgan voqea, uni yosh bola xijolat qilgani shunday tarbiyaning mevasi.

Eng muhimi, o‘zimiz bolalarga o‘mak bo‘lishimiz lozim. Ko‘chada farzandimiz shunday ish qilsa, unga bu ishi noto‘g‘ri ekanini tushuntirsak, kerak bo‘lsa, tashlangan chiqindini o‘ziga oldirib, maxsus qutiga tashlatsirak, u bunday nomaqbul ishni ikkinchi marta takrorlamaydi. Chiqindini qutiga tashlashni odatga aylantiradi. Shunda ular atrof-muhitni asrash barchaning ishi, burchi ekanini yoshligidan anglab yetadi.


Liftlar kimlar uchun?

Poytaxtimizdagi yer usti metro yo‘lining “Texnopark” bekati dan yer osti metro yo‘lining “Do‘stlik” bekati ga o‘tadigan yo‘lda ikkita lift bor. Ulardan biri bir qavat yuqoriga olib chiqadi, ikkinchisi uch qavat pastga olib tushadi. Albatta, bu liftlar, birinchi navbatda, nogironlar, keksalar, bolali ayollar uchun mo‘ljallangan. Lift eshigi oldiga ham katta harflar bilan nogironlar, keksalar, bolali ayollar uchun ekanini yozib qo‘yilgan.

Lekin qachon qaramang, poyezd to‘xtashi bilan yosh yigit-qizlar chopib kelib, liftni egallab oladi. Buni ko‘rgan keksalar indamay zinadan yuqoriga ko‘tariladi yoki pastga tushadi. Yoshlarga bu lift maxsus kishilar uchun ekanini tushuntirmoqchi bo‘lsangiz, uyalmay, qizarmay charchaganini, foydalanishga haqqi borligini aytdi.

Metroda, avtobusda tez-tez nogironlar, bolali ayollar va keksalarga joy berish kerakligi eslatib turiladi. Dunyoning boshqa davlatlari jamoat transportida bunday gaplar aytilmaydi. Yoshlar keksalarga, nogironlarga, bolali ayollarga joy berishga majbur ham emas, albatta. Bu odatni musulmonchilikka bog‘lasangiz, ko‘plab musulmon davlatlarda ham yoshlar kattalarga joy bermaydi.

Yuqoridagilardan xulosaga kelish mumkinki, keksalarga, nogironlarga, bolali ayollarga joy berish, hurmatini joyiga qo‘yish Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, o‘zbeklarga xos urf-odat, mentalitet, qadimdan shakllangan hurmat belgisi. Chunki ming yillardan buyon shu an‘ana bilan yashaymiz,



o‘zimizdan kattalarni ko‘rsak, birinchi bo‘lib salom beramiz, hurmatini joyiga qo‘yamiz, qo‘lida yuki bo‘lsa, olib ko‘taramiz, avtobus yoki metroda tik turib qolsa, joyimizni ko‘rmaslikka beramiz.

Afsuski, so‘nggi yillarda shu qutlug‘ an‘analar esdan chiqa boshladi. Jamoat transportida yerni usa talqon qiladigan yosh yigit-qizlar yonida hassaga suyanib ketayotgan bobosi tengi otaxon yoki onaxonga, farzandini qo‘lida ko‘tarib turgan ayolga joy berishni o‘ylamaydi. Sal uyalgani o‘zini uyquga soladi yoki telefoniga termilib, atrofdaqlarni ko‘rmaslikka oladi.

To‘g‘ri, yoshlarning hammasi ham unday emas, lekin ular safi yildan yilga ko‘payib borayotgani ham haqiqat. Vaqt o‘tishi bilan bu yaxshi an‘ana mutlaqo unutilishi hech gap emas, nazarimda.

— Jamoat transportida nogironlar, keksalar, bolali ayollarga joy berish o‘zga xosligimiz,

odobimiz, tarbiyamiz belgisi, — deydi Chilonzor tumanidagi “Bahoriston” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Bahodir Ibrohimov. — Yurtimizga kelgan chet ellik sayohlar bu odatimizni ko‘rib, yoshlarimizga havas qiladi. Nazarimda, biz shunday ajoyib, hammani havasini keltiradigan odatlarimizni, o‘zbekchiligimiz belgilardan birini unutib qo‘yyapmiz.

Xo‘sh, nima uchun yoshlar bunday holatga keldi? Buning sabablari ko‘p. Avvalo, turli xorijiy seriallar, ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri bu. Eng muhimi va asosiysi, ota-ona uyida kechqurun farzandlari uchun yarim soatgina vaqt ajratib: “Bolam, keksalarni hurmat qilish kerak, ularni ko‘chada ko‘rsang, salom berish kerak, jamoat transportida ularga joy berish kerak”, deb o‘rgatmaydi. Shu bois, ayrim bolalar oddiy salomlashishni ham bilmaydi.

Aslida, buning uchun alohida vaqt ajratish shart emas. Uyga mehmon kelganda yoki otangiz va onangiz ishdan qaytganda, o‘ynab yurgan bolangizga “Qani, bobongga yoki buvingga assalomu alaykum deb salom ber-chi, ularga avtobusda, metroda joy berish, qo‘lida yuki bo‘lsa ko‘tarish kerak”, deb o‘rgatsangiz, bola shunga o‘rganadi. O‘zidan kattani ko‘rsa, salom beradigan bo‘ladi. Keksalarni hurmat qilish, nogironlarni e‘zozlash, yuqorida aytganimizdek, uzoq tarixdan bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan oddiy o‘zbekona odat. Nahotki, shuni ham unuta boshladik. Afsus!

Farzandga ota-ona namuna

Farzand tarbiyasining ko‘plab usullari bor. Bolani o‘rgatish, tushuntirish, urishish, tarbiyaga aloqador etaklar aytish yoki o‘qib berish, taqilash orqali tarbiyalash mumkin, lekin eng samarali usul namuna ko‘rsatishdir. Bunda asosiy rol ni ota va ona bajaradi. Bola ulg‘ayish jarayonida hamma narsani asosan atrofidagi kattalardan o‘rganadi. Ulardan ibrat olib, ularga taqlid qilib, hayotiy tajriba ortira boradi. Xullas, istaysizmi, yo‘qmi, oiladagi muhit bolani tarbiyalaydi. Boshqacha aytsak, qush uyasida ko‘rganini qiladi.

Ota dangasa, ishiyqmas, erinchoq bo‘lsa, yaqinlaridan xabar olmasa, ularga yordam bemasa, o‘g‘il undan o‘mak oladi. Yoshligidan ishiyqmas, bemehr bo‘lib o‘sadi. Ona kattazang, maqtanchoq yoki g‘yibatchi bo‘lsa, bu xususiyat o‘z-o‘zidan qiziga ham o‘tadi. Ko‘cha-ko‘yda, maktabda hammaga maqtanib yuradi, yonidagi qizlar haqida har xil g‘yibat gaplar tarqatishda uyalmaydigan bo‘ladi.

E’tibor bergan bo‘lsangiz, ayrim oilalarda to‘ydan hech qancha vaqt o‘tmay turli muammolar yuzaga keladi. Kuyovning tayinli biror ishi, oilaga bosh bo‘lish, oilani moddiy ta’minlash layoqati yo‘qligi, kelimning uquvsizligi, oilaviy hayotga tayyor emasligi, yangi oilaga, uning muhitiga ko‘nika olmayotgani, hatto oddiy ovqat pishirishni ham bilmasligi bunga sabab bo‘ladi.

Natijada ayrim yosh oilalar ko‘p yashamasdan ajralib ketishyapti. Sababini so‘rasangiz, dunyoqarashlarimiz to‘g‘ri kelmadi, bir-birimizni tushunmadik deydi. Xo‘sh, bir-birini tushunmaslik nima? Qiz yoki yigitning oddiy o‘zbekcha urf-odatlarini, udumlarni bilmasligi. Dunyoqarashlari to‘g‘ri kelmasligining sababi ham shu.

Bir o‘g‘shim bor edi. Eri o‘qituvchi, xotini tadbirkor. Xotin bozorda do‘koni bo‘lgani uchun o‘zini bosolmay qolgan, erining hurmatini joyiga qo‘ymasdi. Shu bois, oilada ba‘zan turli kelishmovchiliklar, janjallar bo‘lib turardi. Bechora er uchta qizi uchun shu ayol bilan chidab yashardi. Ba‘zan bu haqda bizga ham gapirib qolardi: “U bilan bir kun ham yashamasdimu, qizlarim yetim bo‘lmasin, birovlarning qo‘lida qolmasin, deyman-da”. Qizlar esa janjallarda ona tarafda bo‘lardi.

Yillar o‘tdi. Birin-ketin qizlar voyaga yetib, turmushga chiqdi. Taqdimni qarangki, uch qizning hammasi oradan olti oy-bir yil o‘tgach, uyiga qaytib keldi.

Kichik qizining qaynotasini tanirdim. Undan o‘g‘lining uyi buzilishi sababini so‘radim. Uning aytishicha, kelini erini hurmat qilmagani, oilada o‘z gapini o‘tkazishga intilgan. O‘g‘li esa bunday muommalarga chidamagan. “Bizning uyda hamma masala erkak bilan maslahatlashib hal etiladi. O‘g‘lim shu muhitda katta bo‘lgan. Kelin esa oilani boshqarmoqchi bo‘ldi. Bunga o‘g‘lim ko‘nmadi. Xullas, ikkisi kelisha olmadi”, dedi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, otaning onaga munosabatiga qarab, o‘g‘il tarbiya oladi. Shuningdek, onaning otaga munosabatiga qarab qiz ham o‘zini bo‘lajak turmush o‘rog‘iga nisbatan qanday munosabatda bo‘lish kerakligini o‘rganib boradi. Yuqoridagi voqea gapimizga isbot. Do‘kondor onadan qizlar turmush o‘rog‘iga munosabatni o‘rgangan. Natijasini esa ko‘rib turibsz.

*** Mashhur muhaddis Said ibn Mansur “Farzandlaringiz va ahlingizga yaxshilikni ta’lim beringlar, ularga odob o‘rgatinglar”, deydi. Demak, ota-ona farzand uchun namuna.

Keyingi paytlarda farzandlarimiz tarbiyasidagi nuqsonlar, ular oddiy o‘zbekona odatlarni ham unutayotgani, ularga befarq qarayotgani haqida ko‘p gapiryapmiz, yozyapmiz. Lekin negadir yigit-qizlarimiz tobora g‘arb axloq-odobini ta’siriga tushib boryapti. Bu masala hatto davlatimiz rahbarini ham tashvishga solyapti. Maqolaga Prezidentimizning quyidagi gaplari bilan nuqta qo‘ymoqchimiz:

“Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak...”

Qanchalik qiyn bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalari, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an‘analarni asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”.

Bekqul EGAMQULOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Bugunning gapi



Muhayyo ISMOILOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Toshkent shahri bo‘limi
rahbari

Achinarlisi, ko‘p hollarda ezgu niyatlar bilan boshlangan ishlar yangi hayotning ilk qadamlariyoq katta qarzarlar, ota-onalarning moddiy qiyinchiligi va yosh kelin-kuyov yelkasidagi og‘ir ruhiy yuk bilan boshlanishi odatiy holga aylanib bormoqda. Biz farzandlarimizga baxt

KIMO‘ZARCHILIK YOXUD “DABDABA POYGASI”:

ISROFGARCHILIKDAN VOZ KECHISH — FAROVON TURMUSH GAROVI

Jamiyatimiz tanasida yillar davomida chuqur ildiz otib, bugungi kunga kelib og‘riqli yaraga aylangan bir illat mavjud. Bu umumiy dabdababozlik, ya’ni nafaqat to‘y bazmlari atrofidagi ortiqcha sarf-xarajatlar, balki boshqa marosimlar, uy-joy qurish, mashina yoki hatto oddiy maishiy texnika va telefon sotib olishdagi kimo‘zarga aylangan isrofgarchilik va soxta shuhratparastlik sanaladi.

saroyini qurib berish o‘rniga, ularning bo‘yniga yillar davomida uzilmaydigan qarz zanjirini ilmoqdamiz. Bu holat nafaqat oilaviy byudjetga, balki insonlarning ruhiy xotirjamligiga ham jiddiy putur yetkazmoqda.

Ayni nosog‘lom muhit zamirida “birovdan kam bo‘lmaslik” degan yangilish tasavvur, “Odamlar nima deydi?” qabilidagi eskicha qarashlar va, afsuski, ma’naviy qashshoqlik yotadi. Asl qadriyatlar o‘rnini soxta obro‘ egallayotgan bir vaziyatda insonning kimligi uning ma’rifati yoki odamiyligi bilan emas, balki qanchalik dabdabali to‘y qilgani, qanday hashamatli uy qurgani, qanday libos kiygani, qaysi rusumdagi so‘nggi model telefon ishlatishi yoki qaysi rusumdagi mashinada yurgani bilan o‘lchanadigan xatari mezon shakllanmoqda. Bu holat, o‘z navbatida,

jamiyatda chuqur ijtimoiy tabaqalanishga, odamlar o‘rtasida hasad va norozilik kayfiyati kuchayishiga olib kelishi muqarrar.

Eng yomoni, bu illatlar milliy an‘ana niqobi ostida yashirilmoqda. Vaholanki, xalqimizning asl to‘y marosimlari hech qachon bunday isrofgarchilik va manmanlikka asoslanmagan. Aksincha, ular mahalla-ko‘y birlamligini, oilalar jipsligini, samimiyyat va mehr-oqibatni namoyon etuvchi ijtimoiy institut vazifasini o‘tagan. Tonnalab oziq-ovqatning uvul bo‘lishi, bir kunlik namoyish uchun chetdan mashinalar yollanishi yoki kelin-kuyovning emas, balki taklif etilgan “yulduz”ning obro’si muhim bo‘lib qolishi — bularning barchasi asl qadriyatlarimizga mutlaqo ziddir. Bunday soxta ko‘rinishlar nafaqat to‘ylarda, afsuski, boshqa marosimlarda ham uchrab turgani millat ma’naviyati uchun yanada achinarli hol.

Oldimizga Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek buyuk vazifa qo‘yilgan bir pallada jamiyatda moddiyatchilikning bu qadar avj olishi o‘ta tashvishli. Tarix quchligi beradiki, har ikki Renessans ham, avvalo, ma’naviy uyg‘onish, ilmga intilish va tafakkur yuksalishi orqali ro‘y bergan. Buyuk ajdodlarimiz boylikni kitobda va imlda, inson kamolotini esa dabdabada emas, ma’rifatda deb bilgan. Yangi O‘zbekistonnii qurishga bel bog‘lagan ekanmiz, yoshlarimiz ham

“Kimning to‘yi zo‘r o‘tdi?” degan mayda bahslar bilan emas, balki yangi kashfiyotlar, ilmiy yutuqlar va intellektual salohiyat bilan dunyoga yuzlanishi kerak. Dabdabali marosimlar va keraksiz buyumlarga sarflanayotgan o‘n minglab dollarlar yosh oilaning ta’limiga, uy-joy sharoitiga yoki kichik bir tadbirkorlikni boshlashiga yo‘naltirilsa, bu nafaqat bir oila, balki butun jamiyat rivojiga xizmat qilgan bo‘lar edi.

Jamiyatda “oqilona iste’mol” madaniyatini shakllantirish har qachongidan ham muhim. Oqilona iste’mol shunchaki tejamkorlik emas, balki har bir xaridni ongli ravishda amalga oshirish, buyumning zarurligini uning “obro” uchun sotib olinadigan maqomidan ustun qo‘yish demakdir. Biz ko‘pincha “kerak” bo‘lgani uchun emas, “boshqalarda bor”ligi uchun xarajat qilamiz. Bunday yondashuv nafaqat isrofgarchilikka, balki butun dunyo miqyosidagi katta muammoga — tabiiy resurslar tugab borishiga ham “hissa” qo‘shmoqda. Suv, energiya, xomashyo — bularning barchasi cheklangan. Har bir keraksiz libos, har yili almashitiriladigan telefon yoki ortiqcha oziq-ovqat uvul bo‘layotgan resurslardir. Shunday ekan, oqilona iste’mol madaniyatini kuchaytirish nafaqat dabdababozlikka barham beradi, balki tabiatni asrashga va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatimizni anglashga ko‘maklashadi.

Albatta, davlatimiz tomonidan bu borada tegishli huquqiy me’orlar qabul qilangan va jamoatchilik nazorati kuchaytirilmoqda. Biroq bu asriy illatga faqat ma’muriy choralar bilan barham berib bo‘lmaydi. Bu yerda har bir inson, avvalo, ziyolilar, ijodkorlar, mahalla faollari va diniy ulomalarning mas’uliyati juda katta. Ommaviy axborot vositalarida soxta hashamatni emas, balki kamtarona, fayzli va ibratli hayot tarzini, ilmi, hunarli oilalar baxтини ko‘proq targ‘ib etish lozim. Odamlarning ongida isrofgarchilikka nisbatan nafratni, oqilona tejamkorlikni va oilaning ma’naviy poydevoriga nisbatan esa yuksak hurmatni shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Nafaqat to‘ylarimiz, balki butun hayotiy intilishlarimiz ikki yoshning (yoki oilaning) hayotiga tashvish va qarz olib kiruvchi omilga aylanmasligi, aksincha, quvonch manbai bo‘lib qolishi shart. Biz an’anani saqlash yoki “odamlardan kam bo‘lmaslik” bahonasida kelajak avlodning baxtiga zomin bo‘lmasligimiz kerak. Milliy o‘zligimiz dasturxondagi o‘n xil salata yoki qimmatbaho mashinalar karvonida emas, balki farzandlarimizga berayotgan bilimimiz, yuksak ma’naviyatimiz va mustahkam oilaviy tarbiyamizda namoyon bo‘ladi. Zero, faqatgina ma’rifatli va sog‘lom tafakkurli, oqilona harakat qiladigan millatgina buyuk kelajakni bunoyd etishga qodir.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar i tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyot kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl i chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1146.
34685 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi A2.** Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 01:46

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz

Web-sayt: www.yuz.uz; (71) 233-47-05